

جدید

2025-yil 10-oktyabr
№ 41 (93)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

"XAMSA"NING QADIMIY QO'LYOZMASI HAQIDA

"...mana mening qo'lmda qalin, muqovasi biroz uringan kitob. Ochib ko'raman, maxsus jilo berilgan, ammo qorayib ketgan qog'oz, XV asrning unchalik chiroyli bo'lmagan, biroq aniq, shoshibroq bitilgan qo'lyozmasi: Navoiyning mashhur besh dostoni jamlangan manba. Bu asarning keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxalarini bozorga chiqarish ehtimol mumkindir, ammo bunaqasini, hech qachon!.."



(4-sahifada o'qing).

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Dushanbe shahrida davom etayotgan "Markaziy Osiyo – Rossiya" formatidagi ikkinchi sammit va MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etmoqda.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva joriy haftada Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lib, "Salomatlik marafoni", 870 o'rinni 55-maktabning ochilish marosimi hamda "HealthTech AI Hackathon" tanlovi taqdirlash tantanasida ishtirok etdi.

✓ O'zbekistonda oltin narxlar yana rekord ko'rsatkichni qayd etdi. Markaziy bank ma'lumotiga ko'ra, 9-oktyabr holatida 1 gramm oltin 1 million 608 ming 600 so'mdan baholanoqda. Bu – bir kunda 24 ming so'mdan ortiq o'sish demakdir.

✓ Ozarbayjonda III MDH o'yinlari yakuniga yetdi. Unda ishtirok etgan sportchilarimiz Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi o'rinni egallab, 25 ta oltin, 33 ta kumush, 61 ta bronza (jami 119 ta) medal bilan taqdirlandi.

MOZIYGA QAYTIB

ADOLAT MUZEYIDAGI SUKUT FARYODI

Xabaringiz bor, mamlakatimizda har yili oktyabr oyining birinchi haftasida siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish haftaligi o'tkazilishi belgilangan. Kuni kecha haftalik doirasida O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyiga press-tur tashkil etildi.

Unda Toshkent shahrining barcha tumanlaridan mahalla faollari, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti olimlari, professorlar, magistratlar, mustaqil tadqiqotchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, jamoatchilik faollari hamda huquqshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Press-tur davomida ishtirokchilar yurtimizda prokuratura organlarining tashkil topish tarixi, tizimning mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlari, huquqni muhofaza qilish sohasidagi islohotlar hamda prokuratura faoliyatida muhim o'rin tutgan tarixiy shaxslar hayoti bilan tanishdi.

(Davomi 7-sahifada).

VATAN MANZUMASI

Shodmonqul SALOM

BAXMAL ARCHASIGA

Qoyaga botirib alp panjasini,
Bir tup archa yig'ar olti botmon suv.
Jim turgan burgutday sokin, viqorli,
Baxmal tog'larida yam-yashil surur!

Ulug' parvoz oldi tin olar qush ham,
Yurak o'zi bilmay ulg'ayar, jo'shar.
Nayzasin ko'targan archalar safi
Temurbek chaqirgan majlisga o'xshar.

Ming yillik maton va shuncha sabr,
Vatan tarixini bitgan qoyalar.
Sezganay bo'lyapman – fidolik nadir,
Qaydan paydo bo'lar buyuk g'oyalar?!

Zig'irday urug'dan tosh yorib o'sgan,
Shu archa borliqni poklaydi besas.
Yurtim, ko'ksingdagi alamlaringni
Bitta archachalik aritolsam – bas!

O'ZIMIZNING SHARH

TAKLIF VA TASHABBUSLAR SAMMITI

Ozarbayjonning Gabala shahrida "Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik" shiori ostida o'tkazilgan navbatdagi sammitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik, madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarini kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi. O'zbekiston yetakchisi bu safar ham turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik va birodarlik to'g'risida shartnoma ishlab chiqishni taklif qildi. Albatta, mazkur tashabbusning ahamiyati beqiyos. Shartnoma xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga, ko'p tomonlama hamkorligimizning uzoq muddatli huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir omilni esdan chiqarmaslik kerak. Dunyoda avj olayotgan, oxiri ko'rinmayotgan nizo va urushlar bizning davlatlarimizga ham salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Har qanday mojaro o'z chegaralarida qolmay, zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkinligini inobatga olsak, Prezidentimizning global vaziyatni chuqurtahlil etish va kerakli qarorlar qabul qilish maqsadida tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlar rahbarlarining uchrashuvlarini muntazam o'tkazib borish, birinchi qo'shma uchrashuvni kelgusi yili Samarqand shahrida o'tkazish tashabbusi bilan chiqqani muhim ahamiyatga ega ekaniga amin bo'lamiz.



Prezidentimiz turkiy davlatlarning iqtisodiy sheriklik bo'yicha doimiy kengashini tuzish va uning loyiha ofisini Toshkentda joylashtirish, yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoni shakllantirib, turkiy davlatlarning sanoat alyansi, "Turkiy yashil yo'laklar" tizimi va "Yashil transformatsiya" konsorsiumini tashkil etish bo'yicha ham real va aniq tashabbuslarni ilgari surdi.

Doimiy kengash va loyiha ofisi iqtisodiy rejalarini muvofiqlashtirish va amalga oshirish uchun mustahkam platforma yaratadi. Bu esa savdo, investitsiya va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Sanoat alyansi turkiy davlatlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va raqobatbardosh tar-

moqlarni yaratishga yordam beradi. "Turkiy yashil yo'laklar" tizimi savdo jarayonlarini soddalashtiradi, boj-xona tartib-qoidalarini uyg'unlashtirib, tovarlarning tez va samarali harakatini ta'minlaydi. "Yashil transformatsiya" konsorsiumi turkiy davlatlarni ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga undaydi. Bu tashabbuslar turkiy davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi rolini mustahkamlaydi, ularning global muammolarni hal qilishdagi ishtirokini kengaytiradi.

Prezidentimizning organik qishloq xo'jaligi bo'yicha ekspertlar guruhini tashkil etish va turkiy organik

mahsulotlarning yagona brendini jahon bozoriga olib chiqish taklifi oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladigan muhim tashabbusdir. Ekspertlar guruhi turkiy davlatlarda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, tajriba almashadi va ilg'or texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Yagona brend organik mahsulotlar sifatini nazorat qilish va standartlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi, bu esa iste'molchilarning ishonchini oshiradi. Shuningdek, organik mahsulotlar sog'lom ovqatlanishga va ekologik toza ishlab chiqarishga hissa qo'shadi.

(Davomi 2-sahifada).

ONAJONIM – TABIAT



YASHIL va QORA: TANLOV O'Z QO'LIMIZDA

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent Nurbek QO'CHQOROV bilan suhbat

– Jahon miqyosida iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari haqida ilk bong urgan olim sifatida Yunis Fut nomi keltiriladi. Bu voqea 1856-yilda AQSHda sodir bo'lgandi. Mintaqamizda ekologiyani asrash, unga alohida e'tibor berish qachondan boshlangan? Ajdodlarimizning tabiatga munosabati qanday edi?

– Zamin – yagona uyimiz. U ham tirik organizm bo'lib, bir nuqtasi zararlansa, butun tanaga og'riq beradi. Tabiatdagi zanjir reaksiyasi ekologik muammolarning bir davlat yoki mintqa doirasida qolib ketishiga

yo'l qo'ymaydi. Tabiiy ofatlar tor doirada kechishi mumkin, lekin ekologik xavf har doim umumiydir. Bu haqiqatni anglagan ajdodlarimiz tabiatga oqilona munosabatda bo'lish haqida qariyb uch ming yil avval ham qayg'urgan. "Avesto" sahifalarida inson va tabiatni uyg'unlikda yashashga da'vat etuvchi butun-butun parchalarni o'qish mumkin. Kitobda quruq da'vat emas, yer, suv, tuproq, havodan foydalanish bo'yicha maxsus qoidalar va jazo choralari ham qayd etilgan.

(Davomi 3-sahifada).

Joriy haftada O'zbekiston "Turkiy dunyoning yangilanish jarayoni: turkiy dunyoda jadidlik" mavzusidagi uchinchi xalqaro simpoziumga mezbonlik qildi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va qator muassasalar hamkorligida tashkil etilgan anjuman Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning porloq xotirasiga bag'ishlandi.



MA'RIFAT YOG'DUSI



Asosiy tadbirlar Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universitetida o'tkazildi. Ochilish marosimida simpozium tashkiliy qo'mitasi raislari Ma'rufjon Yo'ldoshev va Yilmaz O'zkaya, universitet rektori Shakarboy Joniqulov nutq so'zladi. Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Turkmaniston, Rossiya, AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlardan tashrif buyurgan hamda masofadan qatnashgan olimlar so'nggi vaqtda sohada erishilgan yutuqlar bo'yicha ma'ruzalar o'qidi.

Anjumanda ma'rifatparvarlik harakatining ayni damda chuqur o'rganilishi davom etayotgan mavzulari qatorida hali qo'l urilmagan masalalariga

ham e'tibor qaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Mehmet Emin Rasulzoda, Ismoil G'asprali kabi atoqli jadidlar faoliyatiga oid asosiy chiqishlardan tashqari, "Hamza Hakimzoda Niyoziy: jadid ziyolining qalamidan "Zaharli hayot" pyesasi", "Qirg'izistonda jadid davridagi nashrlar", "Botu she'rlarida milliy o'zlikni anglash masalasi", "Ozarbayjon jamiyatida ayollar ozodligi g'oyalarining tarixiy rivojlanishi. Jadidlikdan zamonaviy davrgacha", "Abdurauof Fitratning "Munozara" asari tahlili" kabi maqolalar ham olimlar tomonidan e'tirof etildi.

(Davomi 7-sahifada).



TAKLIF VA TASHABBUSLAR SAMMITI



Boshlanishi 1-sahifada.

Bu tashabbus hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish va aholining daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Yagona brend turkiy davlatlarning jahon bozorida imijini yaxshilaydi va ularni sifatli, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar sifatida tanitadi.

Davlatimiz rahbari Gabala sammitida tarif va notarif to'siqlarni bartaraf etish, savdo-bojxona tartib-qoidalarini yengillashtirish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish bo'yicha aniq bitim va kelishuvlar ishlab chiqish lozimligini qayd etdi. Gap shundaki, bugungi kunda TDT mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo ko'lami yil sayin ortib borayotganiga qaramay, mavjud salohiyatimizga nisbatan yetarli darajada emas. Hozirda mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo hajmi 58 milliard dollariga yetgan, ushbu ko'rsatkich turkiy davlatlar umumiy tashqi savdo aylanmasida atigi 7 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, tashqi savdoning katta qismi uchinchi mamlakatlardan qilinadigan importga to'g'ri keladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston yetakchisining tashabbuslari o'zaro savdoni oshirish borasida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, eksport va import hajmlarini oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish hamda bu jarayonlarga ilg'or texnologik platformalarni kengroq jalb qilish imkonini beradi. Mavjud salohiyat va imkoniyatlar ishga solinganda, tashkilot a'zolari o'rtasida ichki savdoni yaqin istiqbolda 100 milliard dollariga ko'tarish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Prezidenti Turkiy investitsiya jamg'armasi faoliyatini kengaytirish, xalqaro va milliy moliya institutlari bilan hamkorlik dasturini qabul qilishni tavsiya etdi. Ta'kidlash joizki, 2023-yili 500 million AQSH dollar (Vengriyadan yana 100 million dollar) kapital bilan tashkil etilgan Turkiy investitsiya fondi ham hozircha real faollikni namoyish etmayapti: investitsiya loyihalari muhokama bosqichida qolmoqda, amaldagi ijro mavjud emas. Demak, jamg'arma hisobidan TDT doirasida loyihalarni maqsadli va tizimli aniqlash mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Tan olish kerak, keyingi yillarda O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qo'shma investitsion loyihalarni ro'yobga chiqarish borasida yaxshi natijalarga erishdi. Masalan, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston birgalikda Qambarota GESi qurilishi va ekspluatatsiyasi loyihasini amalga oshirmoqda, hamkorlikda qo'shma avtomobil zavodlari ishga tushdi. Ushbu amaliy tajribani TDT doirasida qo'llash xorijiy investitsiya hajmini oshirishga imkon yaratadi. Tashkilotning barqaror investitsion makon sifatidagi nufuzini yuksaltiradi, o'zaro sarmoyaviy hamkorlikning real mexanizmlarini yaratadi, shuningdek, bugungi global savdo zanjirlarining uzilishi fonida qo'shma investitsion loyihalarni amalga oshirish borasidagi salohiyatini kengaytiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev transport-tranzit salohiyatidan unumli foydalanish borasida ham qator takliflarni o'rtaga tashladi. Jumladan, O'rta koridor bo'ylab tranzit tariffalarini maqbullashtirish, chegaralardan o'tish jarayonlarini soddalashtirish, zamonaviy logistika tizimlari va qo'shma operatorlarni

yaratish shular jumlasidan. Bugungi kunda O'rta koridor bo'ylab tashilayotgan yuk hajmi qariyb 3 million tonnaga yaqin, kelajakda bu ko'rsatkichni 10 million tonnagacha oshirish kutilmoqda. Biroq infratuzilmaning hali to'liq rivojlanmagani sababli, O'rta koridorni mintaqaviy yo'nalishdan qit'alararo tranzit arteriyasiga aylantirish jarayoni biroz sust kechyapti. Jumladan, hozirgacha mazkur loyihada ishtirok etuvchi davlatlar hududidan o'tuvchi yuk tashishning atigi 4-5 foizi qit'alararo savdogo to'g'ri keladi.

O'zbekistonning tashabbuslari Osiyo va Yevropa o'rtasida strategik ko'priki sifatida e'tibor qozonayotgan ushbu muhim transport yo'lagini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu transport yo'lagining samaradorligini oshirish orqali TDT mamlakatlari nafaqat xalqaro tranzit, balki mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning muhim ishtirokchilari sifatida ham mavqeyini mustahkamlashi mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbarining sammitdagi O'rta koridorni rivojlantirish va uni Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li hamda Transafg'on yo'lagi loyihalari bilan bog'lash taklifi mintaqaning tranzit salohiyatini oshirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan. O'rta koridor – Xitoydan Yevropaga Markaziy Osiyo va Kaspiy dengizi orqali o'tuvchi muhim transport yo'lagidir. Bu yo'lining rivojlanishi mintaqada davlatlariga savdo aloqalarini kengaytirish, eksport-import operatsiyalarini osonlashtirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, bojxona tartibotlarini raqamlashtirish va tariflarni optimallashtirish ham O'rta koridorning samarali faoliyatini ta'minlash uchun muhimdir. Raqamlashtirish jarayonlarni tezlashtiradi, byurokratiyani kamaytiradi va korrupsiya xavfini pasaytiradi. Tariflarni optimallashtirish esa transport xarajatlarini kamaytirib, O'rta koridordan foydalanishni jozibali qiladi. Mamlakatimiz rahbari turkiy davlatlarni raqamlashtirish bilan shug'ullanishga uzoq vaqtdan beri chaqirib keladi. Mutaxassislarning fikricha, 2028-yilga borib raqamli iqtisodiyot hajmi 16,5 trillion dollarga yetib, jahon yalpi ichki mahsulotining 17 foizini tashkil qiladi. Ya'ni, raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning TDTga a'zo va kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari dinamik ravishda o'sib borayotganini kuzatish mumkin. Tashkilotning O'zbekiston umumiy tashqi savdosidagi ulushi 16 foizga yetdi. E'tiborlisi, TDT mamlakatlari, xususan, Qozog'iston va Turkiya O'zbekistonning tegishli uchunchi va to'rtinchi asosiy tashqi savdo hamkorlari hisoblanadi. Qolaversa, O'zbekiston TDTda ishtirok etuvchi qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, shuningdek, Ozarbayjon bilan erkin savdo rejimi, Turkiya va Vengriya bilan eng ko'p qulaylik rejimi shartlari asosida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'ygan.

Shu bilan birga, O'zbekiston va boshqa TDT mamlakatlarining qulay geografik joylashuvi ularning global ishlab chiqarish va savdo zanjirlarida asosiy bog'in bo'lish imkonini beradi. Misol uchun, O'zbekiston Markaziy Osiyo va TDT makonida transport-logistika hamda o'zaro bog'liqlikni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Qozog'iston va

Qirg'iziston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga, Vengriya Yevropa Ittifoqiga, Turkiya esa Yevropa Ittifoqining bojxona ittifoqiga a'zo hisoblanadi. Shuningdek, Turkmaniston va Ozarbayjon Kavkaz va Markaziy Osiyoni bog'lovchi muhim davlatlardir.

Madaniy-gumanitar mavzular hech qachon davlatimiz rahbarining e'tiboridan chetda qolmaydi. O'zbekistonda qo'shma tadqiqotlar va innovatsiyalar maydoniga aylanadigan Turkiy davlatlar xalqaro universitetini tashkil etish tashabbusi ilmiy salohiyatni birlashtirish va tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yerda qo'shma tadqiqotlar olib boriladi, innovatsion loyihalar ishlab chiqiladi va turkiy dunyo uchun dolzarb bo'lgan muammolarga yechim izlanadi. Universitet turkiy davlatlar uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlaydi, ular iqtisodiyot, texnologiya va boshqa sohalaridagi muammolarni yechishga qodir bo'ladi.

2026-yilda "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi – Turkiy dunyo ma'naviy hayotida" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusi muhim ahamiyatga ega. Bu ikki buyuk siymo butun turkiy dunyo uchun ardoqli mutafakkirlardir. Ularning ijodini targ'ib qilish turkiy xalqlarning umumiy madaniy merosini asrash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Anjuman doirasida turli davlatlardan kelgan olimlar Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganish bo'yicha o'zaro tajriba almashdilar. Konferensiya turkiy xalqlarning ma'naviy birligini mustahkamlashga, umumiy qadriyatlarni qayta kashf etish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sammitda so'zlagan nutqi nafaqat tashkilot, balki butun Yevroosiyo mintaqasi uchun aniq, puxta o'ylangan va eng muhimi, pragmatik harakatlar dasturi sifatida yangradi, desak, ayni haqiqat bo'ladi. O'zbekistonning takliflari shunchaki tashabbuslar yig'indisi emas, balki turkiy dunyoni madaniy-tarixiy birlikdan real iqtisodiy va strategik kuchga aylantirishga qaratilgan yaxlit dasturlamal sifatida o'rtaga tashlandi.

Bugungi kunda TDT – o'sib borayotgan siyosiy va institutsional ahamiyatga va katta salohiyatga ega bo'lgan to'laqonli tashkilotdir. Bu salohiyat nafaqat umumiy manfaatlar va siyosiy intilishlarning mosligiga, balki uni boshqa xalqaro birlashmalardan ajratib turadigan betakror poydevorga ham asoslangan. Pragmatik manfaatlar atrofida shakllangan ko'plab xalqaro birlashmalardan farqli o'laroq, turkiy davlatlarni tarixiy xotira, etnik ildizlar va madaniy qarindoshlik birlashtiradi. Bu omil nafaqat ramziy birlikni ta'minlaydi, balki chuqur integratsiya uchun ham sharoit yaratadi.

Tashkilotning o'ziga xosligi yana shundaki, barcha a'zo davlatlarda siyosiy barqarorlik ta'minlangan va o'zaro do'stona munosabatlar o'rnatilgan. Bu xalqaro amaliyotda kam uchraydigan holat, ya'ni hamkorlik qarama-qarshiliklarni bartaraf etish emas, balki manfaatlarining tabiiy uy'g'unligi va tarixiy yaqinlik asosiga qurilgan. Shu sababli, O'zbekiston uchun tashkilot faoliyatini – bu energetika, transport yoki madaniy loyihalar bo'ladi – aniq mazmun bilan to'ldirish o'ta muhim.

Boshqacha aytganda, gap shunchaki ramziy ittifoq emas, balki tashabbuslarni ishlab chiqish va aniq natijalarga erishishga qodir bo'lgan jonli mexanizm haqida ketmoqda. Aynan TDTda qarama-qarshilikka emas, balki umumiy ildizlarga, o'zaro ko'plab-quvvatlash va pragmatizmga asoslangan hamkorlikning muqobil modelini taklif qila oladigan birlashmaga aylanish uchun noyob imkoniyat mavjud.

Davlatimiz rahbarining dolzarb tashabbuslari esa, tashkilot samaradorligini yangi bosqichga ko'tarishga, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Sitora BARLIBOYEVA,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Turkiy dunyo oilasining ikki muhim a'zosi – O'zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganiga joriy yil 2-oktyabr kuni 30 yil to'ldi. Bu davr ichida tomonlar o'rtasida ko'plab muhim hujjatlar imzolandi, tarixiy davlat tashriflari amalga oshdi, oliy darajadagi uchrashuvlar o'tkazildi. Ikki va ko'p tomonlama hamkorlik yo'nalishlarida salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'zaro munosabatlar, ayniqsa, so'nggi sakkiz yil ichida shu darajada faollashdiki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "munosabatlarimiz tarixda hech qachon bugungidek yuqori darajada bo'lmagan".



OQIBATLI ITTIFOQ

Mamlakatlarimiz 30 yil davomida xalqaro maydonda, mintaqaviy masalalarda doim bir-biriga hammaslak bo'lib keldi. O'zbekiston, ayniqsa, Tog'li Qorabog' masalasida uni Ozarbayjonning ajralmas bo'lagi, degan qat'iy pozitsiyada mojaro yechim topgunga qadar sobit qoldi. Ayni paytda esa, mamlakatimiz do'st va qardosh Ozarbayjonga bo'lgan hurmati ifodasi sifatida notinchliklardan aziyat chekkan jafokash Qorabog'ni tiklash ishlarida ham beminnat yordam qo'lini cho'zmoqda.

MUSHTARAK ILDIZLAR

O'zbekiston va Ozarbayjon bir-birining mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan edi. Oxirgi besh yil ichida esa ushbu munosabatlar ittifoqchilik darajasiga chiqib, sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo'yd. 2024-yilda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolaniishi ikki qardosh mamlakat o'rtasida tobora faollashib borayotgan hamkorlikning mantiqiy davomi bo'ldi.

O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev o'shanda mazkur tarixiy natijaga yuksak baho berar ekan: **"Ozarbayjon bizning muhim strategik hamkorimiz va ittifoqchimizdir. Bizni mushtarak tarixiy ildizlarimiz va ko'p asrlik do'stligimiz, yagona din, o'xshash madaniyat va an'analar bog'lab turadi. Bularning barchasi har tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun ishonchli poydevor bo'lib xizmat qilmoqda"**, deya ta'kidlagan edi.

Tahlilchilar O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlari mintaqasi siyosatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi. Vashingtondagi "Caspian Policy Center" aql markazi tahlilchisi Samanta Fangerning so'zlariga ko'ra, hozirda mintaqada "postsovet cheklovlaridan" sezilarli uzoqlashish jarayoni kuzatilmoqda. Xususan, turkiy davlatlarning umumiy munosabatlari, bir-biri bilan ikki tomonlama aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Fangerning fikricha, Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yaqin kelajakda izchil rivojlanishda davom etadi. Chunki tobora ko'proq uchrashuvlar, ikki tomonlama infratuzilma loyihalari va rivojlanish dasturlari o'zaro munosabatlarni yangi darajaga olib chiqmoqda. Ikki qardosh mamlakat xalqaro tashkilotlar doirasida ham faol hamkorlik qiladi.

O'SISH TASODIFIY EMAS

Raqamlar ikki qardosh davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yildan yilga rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi. So'nggi 8 yil ichida ikki tomonlama savdo 7,8 baravarga o'sdi va 2024-yilda 268,2 million dollarga yetdi. O'zbekistonning Ozarbayjonga eksporti 7,5 baravarga o'sib, 210,7 million dollarni tashkil qildi. Import ko'rsatkichlari esa 9 baravarga oshib, 57,4 million dollarga yetdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Ozarbayjonning 240 dan ortiq kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Ozarbayjonda esa 70 dan ziyod o'zbek kompaniyasi ish boshladi.

2025-yilning dastlabki oylarida o'zaro savdo aylanmasi yanada oshgani kuzatildi: yarim yilda savdo hajmi deyarli uch baravarga ko'tarilib, qariyb 236 million dollarga yetdi. Bu o'sish tasodifiy emas. Ikki tomon bugun sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, shuningdek, yashil energiya sohalarida yirik rejalarni birgalikda amalga oshirmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik yo'nalishi haqida so'z borar ekan, ikki mamlakat kelishuvi asosida tashkil etilgan Ozarbayjon – O'zbekiston investitsiya kompaniyasi (AUIK)ni ham eslab

o'tish o'rinli. AUIK 2023-yilda hukumatlarning qo'shma tashabbusiga ko'ra, 500 million dollar ustav kapitali bilan tashkil etilgan. U ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikda yangi yo'nalishlarni kashf etmoqda. AUIKning asosiy maqsadi – har ikkala respublika iqtisodiyotining rivojlanishi va gullab-yashnashiga qo'shma loyihalarni amalga oshirish orqali ko'maklashishdan iborat. Shuningdek, u turli faoliyat va sohalaridagi kompaniyalarni bevosita qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan.

O'zbekiston va Ozarbayjon, ta'bir joiz bo'lsa, bugungi turkiy dunyoning muhim iqtisodiy dvigatellari sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Ikki davlat ham hududiy jihatdan muhim strategik savdo koridorlari bo'ylab joylashgan va dunyoning turli mintaqalarini bog'lashni tashqi siyosatining asosiy kun tartibiga qo'ygan. Ozarbayjonning logistika infratuzilmalari, jumladan, Boku xalqaro dengiz savdo porti, Boku–Tbilisi–Kars temir yo'li, Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'nalishi O'zbekistonning dunyo bozorlariga chiqish harakatlarida muhim o'ringa ega loyihalar hisoblanadi.

QADIM TARIXGA EGA DO'STLIK

O'zaro madaniy aloqalarning o'tmishi o'ttiz yillik dovondan ancha olis davrlarga borib taqaladi. Ozarbayjonlik taniqli jurnalist, siyosiy sharhlovchi Elnur Enverog'lu ham buni ta'kidlaydi: "Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalar uzoq o'tmishga ega. Rasmiy diplomatik aloqalar 1995-yilda o'rnatilgan bo'lsa-da, ikki xalq o'rtasidagi birodarlik rishtalari zamonaviy davlatlilikdan oldin ham bo'lgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ustozlari Nizomiy Ganjaviydan ilhomlanishidan to XV asrda Bokuning eski shahrida bunyod etilgan Buxoro karvonsaroyigacha – o'zaro madaniy ehtirom uzoq o'tmishdan buyon davom etib kelayotganiga dalildir. Samarqandda dafn etilgan ozarbayjonlik faylasuf Yusuf ibn Muhammadjon Qorabog'iyning maqbarasi ham ikki xalq o'rtasida ko'p asrlik ilmiy almashinuvlar bo'lganini ko'rsatadi".

MINTAQALAR RIVOJI UCHUN HAM MUHIM

Sirasini aytganda, O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlari mintaqaviy kuchlar ko'proq mustaqillikka, qudrat markazlariga muvozanatli yondashuvga intilib, milliy o'ziga xoslikka ko'proq urg'u berish yo'nalishida rivojlanayotgan Yevroosiyo geosiyosiy arxitekturasini o'zida namoyon qilmoqda. O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi tobora kuchayib borayotgan hamkorlik, o'z navbatida, ikki mamlakatning ham xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashga va Trans-Kaspiy koridorini Yevroosiyo siyosatining strategik ustuvor yo'nalishiga aylantirishga xizmat qiladi.

Ozarbayjonga borgan o'zbekistonlik o'zini uyida yurgandek his etishi, ozarbayjonlik esa O'zbekistonda "qardoshim" deya izzat-ikrom qilinishi bejiz emas. Bu asrlar davomida shakllanib kelgan buzilmas do'stlik va ikki birodar davlat rahbarlarining uzoqni ko'zlagan siyosati natijasida yangi ufqlarga chiqqan hamkorlik aloqalari mevasidir. Kavkaz va Markaziy Osiyoning bayroqdorlari bo'lmish ikki qardosh davlat o'rtasidagi hamkorlik ikki mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Avazbek SHERMATOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
ilmiy xodimi



UYG‘OQ XOTIRA

Barmoq chiziqlari mutlaqo mos keladigan ikki odam bo‘lmaganidek, hayot yo‘li butkul o‘xshash odamlarni ham topish mushkul. Taqdir Asil Rashidovga mutloq o‘ziga xos hayot yo‘li, yirik davlat arbobi va mashhur adibga ukalik baxtini nasib etdi. Lekin navqiron Asiljon bundan mag‘rurlanmadi, ongli, samarali hayotning kaliti mehnat va faqat mehnat ekanini erta anglab yetdi. U o‘ziga nomzodlik ishi sifatida “O‘zbek qissalarida mehnat tasviri” mavzusini tanlagani ham aslo bejiz emas.

Asil Rashidov umrining oxirigacha mehnat qildi. Birgina misol, 2008-yilda “Chingiz Aytmatovning badiiy olami” kitobini salkam yuz betga yaqin yangi materiallar, tahlillar bilan boyitib, to‘ldirib nashr ettirdi. Aytmoq joizki, Asil aka adib asarlarini tarjima qilish jarayonida uning ijodi tadqiqotchisiga aylana bordi va natijada nafaqat tarjimon, balki yirik aytmatovshunos olim darajasiga ko‘tarildi.

Asil Rashidov Chingiz Aytmatovdan qilgan tarjimalarini muttasil tuzatib bordi, ularni mukammallashtirdi. “Birinchii muallim” va “Yuzma-yuz” qissalari tarjimasiga qaytadan murojaat qildiki, bunga alohida sabablar mavjud edi. “Birinchii muallim” dastlab Zaynab tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, “Sarvqomat dilbarim” (1964) kitobiga kirgan edi. Gap shundaki, Chingiz Aytmatovning o‘zi qissaga ayrim juz‘iy o‘zgartishlar kiritgan. Bu o‘sha davr siyosati bilan bog‘liq edi.

Men bir maqolamda “Birinchii muallim” qissasidagi “Suvjon, shu kunlarning hamma shalqot, ifloslarini yuvib ket” degan gap tarjimasini adashib Asil akaga nisbat bergan holda, “Suvjon” so‘zining qo‘yilmaqom ishlatilgani haqida yozgan edim. Aslida, bu tarjima Zaynabga tegishli edi. Lekin Asil aka bu parchani maromiga yetkazib tarjima qildi: “Ey, hayotbaxsh suv, senga ming qatla shukrlar bo‘lsin, bu qaro kunlarning barcha najaslari-yu razolatlarini oqizib ket!”

ASL SHARAF

Asil aka ayrim zamondosh-teng-doshlaridan farqli ravishda, odam o‘tgandan keyin ham hayot to‘xtab qolmasligi, o‘limdan keyin ham tiriklik mavjudligiga ishonar edi. U kishining so‘nggi kunlariga guvoh sifatida ayta olamanki, Asil aka umrining so‘nggi daqiqalarigacha ishladilar, 90 yoshning zalvori, talay kasalliklar shitobiga qaramay.

Shunda Abu Rayhon Beruniyning so‘nggi daqiqalari haqida yozib qoldirilgan voqea beixtiyor yodga keladi. Beruniy o‘lim to‘shigacha yotganida, olim do‘sti Abulhasan Valvolijiy yonida edi. Beruniy ko‘zini ochib: “Sen bir vaqtda “Jaddatul fosi-da” (“Meros masalasiga doir hisob”) to‘g‘risida menga ba‘zi so‘zlarni aytib eding, o‘sha masalaning mohiyatini tushuntirib berishingni so‘rayman”, dedi. Do‘sti olimning og‘ir yotganini ko‘rib: “Hozir bu haqda so‘rashning va unga javob berishning o‘rni ham, vaqti ham emas”, dedi. Abu Rayhon: “Ey, ulug‘ do‘stim, bu dunyoda tug‘iladigan har kim muqarrar ravishda o‘ladi, ammo aql menga bir vaqtlar sen aytgan masalaning mohiyatini bilib olishni ta’kidlamoqda. Buni men butunlay bilmaganim yaxshiroq edi va shu holda o‘lib ketgan bo‘lur edim. Shu sababli bilib o‘lishim bilmagan holda o‘lishimdan yaxshiroqdir”, deydi.

Eslaganim sababi, Asil Rashidov “Birinchii muallim”ni qayta tarjima qilib, mukammal holga keltirganidan tashqari, “Yuzma-yuz” qissasi tarjima ushida ham so‘nggi damlarigacha ishladi va uni 1988-yilda to‘ldirilgan holda nashr ettirdi. Asarda “Muallif-dan” deb nomlangan kirish so‘zida shunday yoziladi: “Yuzma-yuz” qissa-si “Oktyabr” jurnalida chop etildi, kitobxonlar e‘tiboriga sazovor bo‘ldi, tanqid ham uni chetlab o‘tmadi, lekin takror aytaman, oradan ko‘p vaqt o‘tdi va men yana qissaga qaytishga, o‘sha kezlar senzura talablari bo‘yicha voz

kechishga majbur bo‘lgan ayrim boblar, qahramonlarimning ayrim harakatlari qayta tiklashga qaror qildim”.

Shu tariqa, avval nashr etilgan qissa ellik sahifa atrofida bo‘lsa, keyingi nashrda 90–95 sahifani tashkil etdi. Muallifning yozishicha, bir paytlar qissaga kiritilmagan parcha aynan sovet davrida ishbilarmon dehqon sinfini tugatishga qaratilgan quloqlashtirish jarayonlariga oid edi. Shuningdek, keyingi parchada avval juda kam o‘rin berilgan ona obrazi faollashadi va mukammallashtadi. Uning kasallikka chalinishi va vafot etishi, qabrga qo‘yish jarayonini olisdan pisib kuzatishga majbur qochoq o‘g‘lining alam-iztiroblari kuchli dramatism bilan tasvirlanadi.

Ona tirikligida o‘g‘lining qilmishini tushunganday bo‘ladi, uning ushbu so‘zlari urushni ko‘klarga ko‘tarayotgan mustabid tuzum siyosatiga yoqmasligi aniq edi: “... Baxti qora o‘g‘lim esa qo‘chqinda, uni la‘natlay olmayman: axir, urushni u chiqargani yo‘q-ku, uning ham qurbon bo‘lgisi kelmaydi”. Onaning bu tarz fikrlashi bejiz emas. U tuzumdan minnatdor emas, alamzada. Akalari, qondoshlari quloqlashtirish siyosati tazyiqidan qochib, birov ustidan birov hukmron bo‘lmagan Chotqolga oilalari bilan ketishgan.

Senzura nimalagan dastlabki nashrda onaning taqdiri mavhum edi. U “tentirab, allaqayerga – dashtlikka chiqib ketdi”, deyilgandi. Tabiiyki, muallif onaga oid bunday gaplarni asardan chiqarib tashladi, obrazga boshqa vazifa yukladi. Onaning vafoti qochoq Ismoilning ahvol-ruhiyasi hamda fojiasini ko‘rsatishga, quloqlashtirishga qarshi motiv esa qahramon xatti-harakatini psixologik asoslashga xizmat qiladi. Endi Ismoilning urushga borishdan bosh tortishini mustabid tuzumga qarshi o‘ziga xos isyon tarzida anglashimizga imkon tug‘iladi:

“So‘ng esa u xuddi mast odamday bor ovozi bilan qichqira boshladi: “Onajon, onajon, kechir! Meni kechir! Meni la‘natla! Narigi dunyoda la‘natla! Urushni la‘natla! La‘natla! Urushni la‘natla!” Bu hali hammasi emas. Qahramonning faryod va tahdidi haddi a‘loga chiqadi: “So‘ng u bir zum jimib qoldi, xuddi nimanidir o‘ylab qolganday yana g‘azab bilan dahshatli bo‘kira boshladi. “Nafratlanaman! Qasos ola-man, qasos, hammasidan qasos ola-man! Hech kimni ayab o‘tirmayman...”

Xuddi shu yerda kiritma tugaydi va qissa voqealari avvalgi maromda davom etadi. Lekin kiritma asarning g‘oyaviy a‘moliga kuchli ta’sir o‘tkazadi, ya‘ni qochoq Ismoil, bosh jabridiya Saidada obrazi to‘lishib, boyishiga, polifonik belgilar kashf etishga, asarda kuchli tragizm yaralishiga zamin yaratadi, tayanch bo‘ladi. Muallif yozganidek, “zero o‘ttiz sahifa material qo‘shganimdan so‘ng his qildimki, bu amal, har qalay behuda ketmadi, o‘z natijasini berdi”.

Maqolada keltirilgan barcha misollar Asil Rashidov tarjimonlik qalami mahsuli bo‘lib, talay o‘rinlarda asliyat bilan bahslashadi, ayrim hollarda undan o‘zadi ham. Chingiz Aytmatov o‘zbekcha yozsa, shunchalik yozardi-da, deysiz beixtiyor.

Chingiz Aytmatov yapon mutafakkiri Daysaku Ikeda bilan qilgan muloqotida, 300 sahifadan iborat bu dia-log “Ruh ulug‘vorligiga qasida” deb nomlanadi, o‘zining ilk qissasi haqida gapiradi: “Mening ilk qissam – “Yuzma-yuz” o‘ttiz yil o‘tgach qochoq va uning onasi haqidagi qahramonning xatti-harakatlarini psixologik tahlil qilishga bag‘ishlangan yangi bobbilantol‘dirildiki, avvallari mafkuraviy sabablarga ko‘ra uni asarga kiritib bo‘lmadi”. Shu yerda suhbatdosh Ikeda qissa yapon tilida “Saidaning kulfati” nomida nashr etilib, yapon jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otganini ta’kidlaydi.



Ozroq cho‘zilgan yuqoridagi mulo-hazalardan maqsad avval olib tash-langan, so‘ng qissaga kiritilgan parcha-ning badiiy ahamiyatini hamda u Asil Rashidov tomonidan yuksak saviyada tarjima qilinganini ta’kidlashdir. Asil aka asarning badiiy-g‘oyaviy yo‘nalishini global hayotiy haqiqat tomon burgan ushbu kattagina kiritmani umrining so‘nggi yillarida sabot bilan ona tilimizga o‘girdi va nashr ettirdi. Ustoz tarjimonning Chingiz Aytmatovdan qilgan tarjimalari yaxlitlik kasb etdi, o‘z badiiy qiyomiga yetdi.

Asil aka shu sohada amalga oshirgan ishlarining ilmiy jihatdan qayd etilishi va tadqiq qilinishini istadi hamda shu ishni bajarishni mendan iltimos qildi. Men bu iltimosni vasiyat sifatida qabul qildim va uni shu yerda baholi qudrat ado etmoqdaman.

Qo‘lmda Asil aka o‘z dastxatlari bilan yozgan: “Ushbu material do‘stim Suvonqulga topshiriladi. Mavzu: Ortga bir nazar yoki bir asarning ikki tarjimas-i xususida” deya boshlanadigan salkam bir varaq xat ham bor. U 2020-yil 18-aprelda yozilgan va shu kuni menga berilgan. Nasib etsa, Asil aka taklif qilgan mavzuda ham bir maqola yozarmiz.

Hazrat Navoiyning kichik zamon-doshi, buyuk shoh va shoir Zahirid-din Muhammad Bobur o‘z “Bobur-noma”sida ul zotning “Nozuk mijoz”ligi

haqida so‘zlab, “El nazokatini davlatining g‘ururidin tasavvur qilur edilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy (tug‘ma) ekandur” deb yozadi. Shunga yaqin mulohazani Asil akaga ham qo‘llash mumkin, u kishi ancha-muncha odamni o‘ziga yaqinlashtirmas, kam sonli do‘stlarini esa g‘oyat qadrlar edilar. “Elektr simidagi ikki qush qiyshiq o‘tirs-a g‘ashimga tegadi”, degan edi ustoz birgalikdagi sayrlarimizdan birida. Hamma narsada tartib-intizom, me‘yor va uyg‘unlik qat’iy hayotiy talabi va a‘moli edi Asil akaning.

Asil Rashidov ta’lim bergan sho-girdlar el-yurtga naf keltirib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘sh-moqda, u kishi yaratgan ilmiy asarlar o‘z fanniy vazifasini bajarmoqda. Ona tilimizga mohirona o‘g‘irgan asarlari, ayniqsa, Chingiz Aytmatovning hikoya va qissalaridan tortib “Asrni qarit-gan kun” romanigacha hamon seviv o‘qilmoqda, teatr sahnalarida ta’sirchan namoyish etilib, tomoshabinlar olqi-shiga sazovor bo‘lmoqda. Demak, Asil Rashidov ma’nan barhayot, u kishi qoldirgan meros hamon harakatda. Bu meros ishlamoqda, mehnat qilmoqda.

Chingiz Aytmatov taniqli jurnalist Anvar Jo‘raboyev bilan suhbatida Asil aka haqida shunday degandi: “Ana shunday adib va tarjimon dastlab mening ijodim bilan o‘zbek adabiyoti o‘rtasida ko‘prik yasagani men uchun cheksiz quvonchdir”. Darhaqiqat, o‘zbek kitobxoni va butun xalq ongida Asil Rashidov nomi olamshumul adib Chingiz Aytmatov bilan yonma-yon qoldi.

Asil Rashidov akasi Sharof Rashi-dov shuhratidan foydalanmadi, yirik davlat arbobining soyasida qolib ketmadi. Chingiz Aytmatovdagi ulug‘ adibning ishonchini suiiste‘mol qilmadi. Shuning barobarida, u akasiga ham, ustoz adibga ham munosib jigar va shogird bo‘lib qoldi. Bu taqdir in‘omi, qolaversa, asl sharafdir.

Suvon MELI,
filologiya fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-sahifada.

Mintaqamizda islom dini yoyilgach, tabiatga g‘amxo‘rlik yangi bosqichga ko‘tarilgan. Xususan, ne‘matlarni isrof qilmaslik, tirik jonga ziyon yetkazmaslik, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga chorlovchi oyat va hadislar odamlarning, bugungi tilda aytganda, ekologik madaniyati o‘lishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, temuriylar davrida bu o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Amir Temurning o‘zi o‘nlab bog‘ barpo etgan. Umuman olganda, o‘sha davrda biror bino qad rostlasa, uning yonida katta bog‘ ham bunyod etilgan. Shu xulosadan kelib chiqib, Temuriylar davrida yaratilgan bog‘larning qamrovini cha-malash mumkin.

Bobur Mirzo ham qayerga borsa, o‘sha yerni obod qilgani haqida uning memuarlari va boshqa tarixiy asarlardan bilish mumkin. Qo‘qon xonligi davrida odamlarning uy-joyidagi hashamat bog‘ining kattaligi va undagi daraxtlarning noyobligi bilan o‘lchangan.

–Bugun-chi? Bobolarning tabiatga muno-sabati, sohibkorligi va shafqat-shafoati to‘laqonli namoyon bo‘lyapti, deyolamizmi?

– Aytish mumkinki, keyingi yillarda O‘zbe-kistonda tabiatga munosabat mutlaqo o‘zgardi. Yangi bog‘lar barpo etilib, mavjudlari kengay-tirilyapti. 2021-yildan boshlab “Yashil makon” loyihasi ish boshladi. Quvonarlisi, bu tashab-bus faqat mamlakat ichida qolib ketmadi. Joriy yilda BMT Bosh Assambleyasi “Barqaror o‘rmon xo‘jaligi asosida o‘rmonzorlashti-rish va o‘rmonlarni tiklash bo‘yicha Harakat-lar Dekadasi” nomli rezolyutsiyani qabul qildi. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezi-dentining asosiy tashabbuslari, jumladan, “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yili” dasturi, “Yashil makon” milliy loyihasi va “Markaziy Osiyo Yashil kamar” daraxt ekish aksiyasi asosida yaratilgan. Rezolyutsiya 2027–2036-yillarni O‘rmon-zorlashtirish va o‘rmonlarni tiklash bo‘yicha Harakatlari Dekadasi deb e‘lon qiladi, kuch va resurslarni safarbar qilishga chaqiradi, shuningdek, davlatlar va tashkilotlarni tegishli chora-tadbirlarni kuchaytirishga tavsiya etadi.

E’tibor bersangiz, rivojlangan davlatlar, xalqaro tashkilotlar va yirik sarmoyadorlar ekologik loyihalarni muntazam qo‘llab-quv-vatlaydi. Bu hatto och va boshpanasiz odamlarga yordam berish ulushidan ham oshib ketadi. Chunki iqtisodiy muammolar aslida o‘sha davlatga tegishli. Lekin bir davlatdagi ekologik muammo ko‘p o‘tmay boshqa joyda ham aks sado bera boshlaydi. Shuning uchun har bir davlat hududidagi ekologik muammolarga qarshi kurashda tashabbuskor bo‘lishi kerak. Bemorning

tanasi kasallikka qarshi tura olmasa, ichki immunitet mustahkamlanmasa, tashqaridan berilgan dori-darmon ta’siri kesiladi. Bu borada O‘zbekiston bugun dunyoga namuna ko‘rsatmoqda. Tabiiyki, hamyurtlarimiz ham bu borada o‘z fuqarolik burchlarini ado etishga baholi qudrat bel bog‘lashgan.

– Albatta, tabiatni asrashda ilm-fanning muhim o‘rni bor. Jahon tajribasida ham olimlar bilan hamkorlikda amalga oshiril-gan loyihalarning samaradorligiga gu-voh bo‘lyapmiz. Bu borada Siz faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston Milliy univer-sitetining biologiya fakultetida qanday loyihalar amalga oshirilyapti?

– Hozirgi kunda fakultetimizda o‘quv jarayonlarini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan barobar olib borishga alohida e’tibor qaratil-moqda. Ekologiya ko‘plab yo‘nalishlarga bo‘linadi. Biz aynan o‘simliklar ekologiyasi

Bugungi kunda izlanish olib borayotgan ilmiy mavzularimizdan biri – semizakdoshlar (Crassulaceae) oilasi vakillarining iqlim o‘zga-rishiga moslashuv xususiyatlarini tadqiq etishdir. Bu o‘simliklarning ayrimlari dorivor hisoblanadi va tibbiyotda muhim ahamiyatga ega. Izlanish orqali nafaqat ichki ehtiyojimizni ta’mirlash, balki kerakli xomashyoni yetkazib berish imkoniyati ham yuzaga keladi.

Bundan tashqari, tuproq va havo qurg‘oq-chiligi hamda sho‘rlanish sharoitlariga bardosh bera oladigan, tolerantligi yuqori o‘simliklarni tanlashga alohida e’tibor qaratyapmiz. Shu yo‘nalishda jamoamiz tomonidan hozirgacha qator ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda uchinchi loyiha yakunlanish arafasida turibdi. Barcha loyihalar asosan Orolbo‘yi hududida olib borilmoqda. Milliy universitetimizning bu yerdagi o‘quv bazasida ko‘plab o‘simlik plantatsiyalari tashkil etilmoqda.



– Gohida insoniyat tabiat bilan kurashga kirganga o‘xshaydi. Buning oqibati qanday bo‘ladi?

– Xohlaymizmi-yo‘qmi, insoniyat qonu-niyatlari tabiat qonuniyatlaridan keyin paydo bo‘lgan. Biz esa tabiat qonunlari doirasida yashaymiz. Antropogen ta’sir yillar va asrlar davomida tabiatda o‘z izini qoldirib keldi. Shu jarayonda to‘plangan salbiy oqibatlar bugun ro‘yobga chiqib, ekologik muammolarga sabab bo‘lmoqda. Bizning vazifamiz – bu muammolarni butunlay yo‘qota olmasak-da, hech bo‘lmaganda, ularni yumshatishga, oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Kelajakda tabiat o‘zini qay darajada tiklay olishini uning o‘zi hal qiladi. Hozircha inson ongi, tafakkuri va texnologiyalari tabiat resurslaridan foydalanishga qaratilgan, biroq uning qonuniyatlarini chuqur tushunishga hali yetib bormagan. Shuning uchun tabiat va jamiyat qonuniyatlarini muvofiqlashtirishimiz kerak. Tabiat bilan hamkorlik qilishimiz zarur. Bugungi ekologik muammolarning ko‘pi mana shu uyg‘unlik yo‘qligidan kelib chiqmoqda.

– Ko‘p bor chet davlatlarda o‘tgan semi-nar va treninglarda qatnashgansiz. Ortirgan tajriba va xulosalaringiz haqida ham gapirib o‘tsangiz.

– Yaqinda Xitoyning Yunchuan shahrida tuproq sho‘rlanishiga qarshi yirik seminarda qatnashdim. Meni havaslantirgan jihat shuki, u yerda yosh-u qari tabiatga birdek mehr qo‘ygan. Ayniqsa, talabalarning tabiatga bo‘lgan e’tibori, intilishi va mehnatkashligiga qoyil qoldim. O‘rnak bo‘ladigan tomonlari juda ko‘p. U yerda talabalar laboratoriyalarda tun bo‘yi navbat bilan ishlashadi, tajribalar o‘tkazib, izlanishlar olib borishadi.

Bizda ham zamonaviy texnologiyalarga ega laboratoriyalar bor, lekin mehnat qilishga bel bog‘lagan yoshlarimiz yetarli emas. Imkoniyatlarimiz juda keng, faqat mehnat va izlanish yetishmayapti.

– Bugun ijtimoiy tarmoqlarda iqlim



havosini tozalash uchun daraxt ekish yoki turli suv o‘tlarini ko‘paytirish kerakligi haqidagi videokontentlar ko‘payib bor-moqda...

– Butun dunyoda atmosfera havosini asosan dengizlar, ummonlar va tropik mintaq-a o‘simliklari, ayniqsa, suv o‘simliklari ta’mi-nlaydi. Lekin xomashyo sifatida o‘rmonlar kes-i-lishi oqibatida kislorod ishlab chiqaradigan o‘simliklar dunyosini yo‘q qilyapmiz, shu bilan birga, atmosferani karbonat angidrid bilan to‘ldiryapmiz.

Ba’zilar bitta yo o‘nta daraxt bilan nima



“Agar narsalarning asl mohiyatiga to‘g‘ri baho bersak, har bir yashil daraxt oltin va kumushdan yasalgan daraxtdan ko‘ra qimmatliroqdir.

Martin LYUTER





TARIXDAN SADO

Sharq xalqlari madaniyati va adabiy merosining bilimdoni Yevgeniy Eduardovich Bertels (1890–1957) navoiyshunoslik taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shgan yirik tadqiqotchilardan biridir. Olimning Ikkinchi Jahon urushi yillari bir muddat Toshkent shahrida istiqomat qilishi uning ilmiy faoliyatida nihoyatda samarali iz qoldirdi. U respublikamizning boy qo'lyozma fondlari bilan yaqindan tanishdi, ulardan unumli foydalandi, oliy o'quv yurti talabalariga ma'ruzalar o'qidi, matbuotda maqolalari bilan muntazam qatnashib turdi. Olimning uch yirik monografiyasi – “Navoiy” (1948), “Aleksandr haqida roman va uning Sharqdagi asosiy versiyalari” (1948), “Jomiy” (1949) tadqiqotlari qo'lyozma fondlarimizdan unumli foydalangan holda dunyo yuzini ko'rdi. Uning ilmiy rahbarligi ostida G'ulom Karimov, Akram Ibrohimov, Solih Qosimov va boshqalar dissertatsiya himoya qildilar.



AFOQLI

NAVOIYSHUNOS

Bertels yurtimizda bo'lgan chog'lari o'zbek adabiyoti tarixining bilimdonlari bilan yaqindan tanishdi, ular bilan ilmiy-adabiy suhbatlar qurdi, fikr-mulohaza almashdi. Olim “Navoiy” monografiyasining muqaddimasida Oybek, G'afur G'ulom, Hodi Zarif kabi zukko insonlar bilan shoir ijodi yuzasidan hamsuhbat bo'lib, muloqot qilmaganida, Alisher Navoiy ijodining ko'pgina tomonlari o'zi uchun qorong'i qolishini aytadi va minnatdorlik bildiradi.

Olimning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy adabiy merosiga oid dastlabki “Navoiy va Attor” (1928) maqolasi Sharq adabiyoti durdonalariga yondashuvning klassik namunasi bo'lib, bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Sharqshunos har ikki doston – “Lison ut-tayr” va “Mantiq ut-tayr”ni sinchiklab, bobma-bob muqoyasa qilib, garchi Alisher Navoiy adabiy an'ana doirasida ish ko'rgan bo'lsa ham, original asar yaratganini misollar bilan isbotlab berilgan. Doston tarkibidan o'rin olgan hikoyatlarni qiyosiy chog'ishtirib, ularning aksariyati Navoiyning uzoq yillik kuzatishlari mahsuli ekan va nisbatan real hayot voqealariga yaqinligini hamda ayni jihatlar bilan salafi Fariddin Attor (1145–1221) hikoyatlaridan farqlanishini alohida ta'kidlaydi. Bugina emas, asar g'oyaviy konsepsiyasi Attor dostonidan butunlay o'zgachaligini Bertels zukko adabiyotshunos sifatida nozik ilg'agan, shuningdek, shoirning tasavvufga munosabatini ham aniq ko'rsata olgan.

Bertelsning “Alisher Navoiy “Xamsa”-sining qadimiy qo'lyozmasi haqida” nomli maqolasi vafotidan sal oldin (1957) yozilgan hamda “Tanlangan asarlar”ining “Navoiy va Jomiy” jildidan o'rin olgan. Unda olim shoir ijodi bilan qay tarzda tanishgan, “Xamsa”ning noyob nusxasi Samarqand shahridan topilishi bilan aloqador jihatlariga batafsil to'xtaladi.

Uning fikricha, bu noyob qo'lyozma Navoiy nazorati ostida, ya'ni shoir kotib Abdujamilga aytib turgan paytda ko'chirilgan. Biroq bu mo'tabar manba asosida “Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan Porso Shamsiyev bu fikrga qo'shilmaydi: “Y.E. Bertelsning mazkur qo'lyozmaning yuqori sifatleri haqidagi fikriga qo'shilgan holda, biz uning avtor aytib turganda ko'chirilgan, degan fikriga qo'shila olmaymiz. Bu qo'lyozmadagi har bir dostonning kolofonlarini solishtirish ham olimning ushbu fikrini tasdiqlay olmaydi. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”ning

tugatilgan yilini aniq (888-1483-yil) ko'rsatadi, dostonning kolofonida esa uning ko'chirilgani 889-yil rabbial-oxir, ya'ni 1484-yilning apreli deb yozilgan. Bundan ko'rinadiki, dostonning yaratilishi bilan uning Abdujamil tomonidan ko'chirilgan vaqti ayrimdir.”

Biz ham muhtaram ustozning fikriga qo'shilamiz. Bertelsning o'zbek kitobxonlari “yengillashtirilgan” “Xamsa”ni o'qimoqdalar, degan fikri ham o'tgan asrning 50-yillariga oid bo'lib, bugun biz dostonlarning ilmiy-tanqidiy matni hamda ular asosidagi asarning to'liq nashriga egamiz.

Maqolada e'tiborimizni tortgan yana bir nuqta: o'sha alg'ov-dalg'ov davrda qo'lyozma manbalar xorijga sotilgan ekan. Qiziq, nima uchun xalqning bebaho merosi bo'lgan kitoblar sotilgan, bu haqda biror-bir davlat idorasida ma'lumotlar saqlanganmi? Agar saqlangan bo'lsa, qaysi noyob manbalar qaysi xorijiy davlatlarga sotilgan va ularning ro'yxati mavjudmi? O'ylashimizcha, bu kabi savollarga aniq javoblar berilishi lozim.

Bertels tadqiqotlari yurtimizda hamisha navoiyshunoslarning diqqat markazida, e'tiboridadir. Mustaqillik davrida olimning bir qator tadqiqotlari o'zbek tiliga o'girildi. Jumladan, tilshunos Ibodulla Mirzayev tomonidan “Navoiy”, “Jomiy” monografiyalari hamda boshqa risolalari o'zbek tiliga tarjima va nashr qilindi.

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi xodimlari ham navoiyshunos olim merosiga muntazam murojaat qiladi. Dastlab O.Jo'raboyev tomonidan “Noma'lum ijodkorning chig'atoycha tarje'bandi” maqolasi tarjima qilinib chop etilgan bo'lsa, keyingi yillarda “Alisher Navoiy dunyoqarashiga doir” maqolasi kamina tarjimasida nashr yuzini ko'rdi. Bundan tashqari, adabiyotshunos SH.Nazarova tanqli turkiyshunos akademik A.N.Samoylovichning o'tgan asrning 20-yillari o'zbek tilida chop bo'lgan “Navoiy to'g'risida Ovropaning olimlari” maqolasini arab yozuvidan tabdil qildi.

Quyida havola etilayotgan maqola ham yuqoridagi ishlar sirasidan bo'lib, Bertels kabi olimlarning merosiga teran nazar tashlash va ularni falsafiy idrok etish orqali ilmiy akademizmdan saboq berib, filologik tadqiqotning o'ziga xos madaniyati sari yetaklaydi.

Abdurasul ESHONBOBOYEV,
O'zbekiston FA Alisher Navoiy
nomidagi davlat adabiyot muzeyi
bosh xazinaboni

“XAMSA”NING QADIMIY QO'LYOZMASI HAQIDA

O'tgan asrning 20-yillari Eronda XIII asrda yashab ijod etgan buyuk shoir Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni nashr etildi. Doston G'arb sharqshunoslik ilmiga ancha avval ma'lum bo'lib, 1857-yili mashhur fransuz sharqshunosi Garsen de Tassi Parijda chop ettirgan va oradan olti yil o'tib fransuzcha tarjimasini amalga oshirgan edi. Birinchi Eron nashri dostonning fransuz olimi tomonidan tayyorlangan nashrida yo'l qo'yilgan bir qator lingvistik va falsafiy noqisliklarni, tushunmovchiliklarni bartaraf etdi. Tabiiyki, bu yangi nashr meni va men bilan Ittifoq Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyida birga ishlaydigan hamkasblarimni qiziqtirib qo'ydi. Dostonni o'qir ekanmiz, beixtiyor uning xayoloti bizni har tomondan chulg'ab oldi.

Bu vaqt orasida Osiyo muzeyi qo'lyozmalarini ilmiy tavsif etish chog'ida qo'limga eski o'zbek tilida bitilgan yangi bir manba kelib tushdi. Bugungidek yodimda, bu kitob katta hajmda, muqovasi qalin qora charmdan, xati unchalik chiroyli bo'lmasa ham, aniq-ravon yozilgan edi. Mazkur manbada men hayotimda birinchi marta Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni bilan tanishdim. Asarning kirish qismlarida (aslida asarning xotimasida – tarj.) ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri bolalik chog'lari Attor dostonini ehtiros bilan o'qib, yodlab olganini maroq bilan hikoya qiladi.

Sharqshunoslar tomonidan ushbu doston bo'yicha yozilgan tadqiqotlar bilan tanishib bildimki, yevropalik olimlar fikricha, Navoiy Attor dostonini o'z ona tili – eski o'zbek tiliga tarjima qilgan. Tabiiyki, meni XV asr she'riy tarjimaning texnik jihatlari qiziqtirib qoldi va men har ikki asarni sinchiklab, bobma-bob muqoyasa qildim.

Bu paytda (1927) hijriy yil hisobi bo'yicha Navoiyning 500 yillik to'yini nishonlash haqida qaror qabul qilindi. Akademik V.V.Bartold bu sanaga atab ilmiy to'plam nashr etishni rejalashtirgan edi va u odatdagidek muzeyga keladigan kunlarining birida menga murojaat qilib: “Siz, meningcha, Navoiyning asari bilan shug'ullangan edingiz. Bizning to'plamga bir maqola tayyorlab berolmaysizmi”, deb qoldi. Buning natijasida “Navoiy va Attor” maqolam yozildi hamda “Mir Alisher” to'plamida (1928) nashr qilindi.

Navoiy asarini qancha ko'p o'qiganim sari, u shuncha ko'p asir qilar, ohanrabodek o'ziga tortar, mayin, iliq turkona yumori va insoniyligi bilan meni maftun etardi. Keyrinib turibdiki, Navoiyni tarjimon deyinib, asarni o'qimay, faqat yolg'iz sarlavhalarga qarab xulosa chiqarishdir. Men o'z oldimga bunday yondashuvning g'ayriilmiy ekanini isbotlashni maqsad qilib qo'ydim va, meningcha, “Navoiy va Attor” nomli maqolamda buni uddaladim. Qizig'i shundaki, Attor ijodiga bo'lgan qiziqishim oxir-oqibat Navoiy “Xamsa”sining qadimiy qo'lyozmasini halokatdan saqlab qolishiga sabab bo'ldi.

Navoiy ijodi bo'yicha tadqiqotim O'zbekiston ilmiy doiralari orasidan e'tiborini tortdi va meni O'zbekistonning o'sha paytdagi poytaxti Samarqand shahriga, ilmiy tadqiqot institutiga ma'ruza o'qish uchun taklif qilishdi. Ma'ruzalar kursini may-iyul oylari oralig'ida o'qidim, Leningradga qaytish arafasida esa respublikaning Maorif tashkiloti (Narkompros) bir ish yuzasidan chaqirib qoldi.

Ma'lum bo'lishicha, davlat savdo tashkiloti (Gostorg) respublika qishloqlari bo'ylab qadimiy qo'lyozmalar, hunarmandchilik ashyolarni aholidan sotib olar, qo'lyozmalarni esa xorijga sotish mo'ljallangan ekan. Buning uchun esa Maorif tashkilotining tegishli ruxsatnomasi kerak, biroq tashkilot xodimlari orasida qadimiy qo'lyozmalarni yaxshi biladigan kishi yo'qligi sabab mendan iltimos qilishgan.

Tegishli hujjatlarni rasmiylashtirgach, Maorif tashkilotining omborlari joylashgan eski g'isht zavodiga qarab yo'l oldim. Xuddi hozirgidek yodimda, yozning issiq kunlari, zavodga boradigan yo'l yangi va eski shaharni bog'lovchi ko'cha bo'ylab o'tadi. Men eski tut daraxtlari ekilgan ariq yoqalab yurdim. Tut obdon pishib yetilgan, uning oppoq, biroq jigarrang bo'la boshlagan



shirin mevalari shlyapamga do'ldek yog'iladi.

Darvoza oldida uzoq davom etgan rasmiy gap-so'zlardan so'ng meni kitoblar va har xil eski-tuskilar bilan to'la, shifti past katta xonaga olib kirdilar. Kitoblarni qalin changdan tozalab, titkilashga tushdim. Qo'lyozmalar orasida unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan kitoblar: madrasa darsliklari, sifatsiz miniatyuralar bilan bezatilgan diniy mavzudagi qo'lyozmalar ko'p edi. Lekin mana mening qo'lmda qalin, muqovasi biroz uringan kitob. Ochib ko'raman, maxsus jilo berilgan, ammo qorayib ketgan qog'oz, XV asrning unchalik chiroyli bo'lmagan, biroq aniq, shoshibroq bitilgan qo'lyozmasi: Navoiyning mashhur besh dostoni jamlangan manba. Bu asarning keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxalarini bozorga chiqarish ehtimol mumkindir, ammo bunaqasini, hech qachon!

Qo'lyozmalarni sinchiklab saralab, sotishga mo'ljallanganlari orasidan ayrimlarini ajratib oldim. Men ajratib olgan yigirmaga yaqin qo'lyozma kitoblar ilmiy-tadqiqot instituti ma'muriyati tomonidan kirim qilib olindi, keyinchalik institut tugatilgach, Toshkentdagi davlat xalq kutubxonasi tasarrufiga o'tdi (hozir esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida №5018-raqam ostida saqlanadi).

Ikkinchi Jahon urushi yillari men Toshkentdagi Tarix, til va adabiyot institutida ishladim. Ishimizning asosiy qismi Navoiyning 500 yillik to'yini nishonlashga (bu safar milodiy yil hisobi bilan – 1441-1941) qaratilgan bo'lib, bu ishlar tor doiradagi kichik bir guruhning ishlari bilan cheklanmay, balki butunittifoq ko'lamidagi, tom ma'noda xalq bayramiga hozirlik edi.

Men yana o'zim saqlab qolgan qo'lyozma bilan to'qnashdim. Endi uni shoshilmay, batafsil va chuqur o'rganish uchun barcha imkoniyat bor edi. Bu yerda mutaxassislarni hayajonga solgan bir holat yuzaga chiqib qoldi. Ma'lumki, Navoiyning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” 889/1483-yili yozilgan. Biroq mazkur asar Abdujamil degan kotib tomonidan 889-yili rabbi ul-oxir oyida, ya'ni 1484-yilning aprel-may oylarida ko'chirib tugallangan. O'ylashimcha, bu sana ishtiboh uyg'otadi, chunki bir necha ming baytdan iborat katta bir doston shoir tomonidan yozib bo'lingach, uch-to'rt oy o'tmay ko'chirilgan. Lekin qo'lyozmaning matni, shubhasiz, yaxshi edi.

Yosh olimlardan G'ulom Karimov to'yga tayyorgarlik arafasida mening maslahatim bilan “Layli va Majnun” dostonining tanqidiy matnini ayni qo'lyozmadan keng foydalangan holda tuzdi. Ish jarayonida uning o'ziga xos jihatlari aniqlandi: qo'lyozma mutlaqo xatosiz bo'lmay, unda har bir manbaga xos noqisliklar mavjud, ko'chirgan kotib, tabiiyki, ayrim xatolarga ham yo'l qo'ygan, biroq bular asliyatni ko'chirayotgan paytda sodir bo'lgan imlo

xatolari bo'lmay, u yoki bu so'zni noto'g'ri eshitish oqibatida ro'y bergan. Bundan esa tabiiy ravishda quyidagicha xulosaga kelish mumkin: Abdujamil diktovka asosida ko'chirgan. Siyohi hali qurimagan asarni kim unga aytib turgan (diktovka) bo'lishi mumkin? Faqatgina muallifning o'zi va shunday qilib, bu nodir qo'lyozma avtograf: uning matni muallif qalami ostidan chiqqan matnning aynan o'zini beradi.

Navoiy bu vaqtda avvalgiga o'xshab yuqori davlat lavozimlarida ishlamagan, biroq mashhur va badavlat kishi sifatida o'ziga tegishli mol-mulkni boshqargan, keladigan daromadni esa jamiyat rivojiga sarflagan. Ko'rinib turibdiki, muallifning ko'p ming baytli asarni sotlab o'tirib chiroyli husnixat bilan ko'chirish uchun fursati bo'lmagan va og'zaki aytib turishni maqbul bilgan. Shunga binoan, qo'lyozmaning xat yo'rig'i: bu yuksak saviyadagi XV asr Hirot xattotlik san'ati namunasi emas, bu dastxat chiroyli yoza oladigan, lekin shoshib, har bir harfni aniq ifodalay olmagani kishining xatidir.

Shuni alohida qayd etish joizki, ushbu qo'lyozma topilguniga qadar O'zbekistonda amalga oshirilgan “Xamsa” dostonlarining nashri asr boshlarida mashhur kotib Shohmurod tomonidan litografiya uchun tayyorlagan matnga asoslanar edi. Bizning qo'lyozma bilan Shohmurod matnini solishtirish shuni ko'rsatdiki, Shohmurod kotib faqat asarni ko'chirib qo'ya qolgan emas, balki muayyan tahrir ishlarini ham amalga oshirgan. U o'z davri kitobxonlari uchun Navoiyning obrazli, metaforalarga boy tili bir qadar og'irlik qilishi, shoir matnini anglash uchun mumtoz poetikadan xabardorlik zarurligini tushungan holda asarni biroz “yengillashtirgan”, tushunilishi murakkab bo'lgan arabcha iboralarni, bu'zan esa butun boshli baytlarni qisqartirgan.

Bugun esa bizning qo'lyozma asosida “Xamsa”ning tegishli matnini butun boyligi va chiroyi bilan tikkash mumkin. Ushbu nodir manbaning fan uchun saqlanib qolishida voqea-hodisalarning sodir bo'lish jarayonidagi ajib bir hikmatni ko'raman. Ochig'ini aytganda, bu men uchun shunchaki bir tasodifiy hol bo'lmay, taqdir go'yoki ulug' shoir ijodining gultoji bo'lmish mazkur yaratq birinchi navbatda avlodlari, to'g'rirog'i, avlodlarining merosxo'rlari qo'lida qolishi uchun oldindan tadorik ko'rgandek tuyuladi.

Afsuski, qo'limizda noyob nusxa bo'lishiga qaramay, hamon o'zbek kitobxonlari “yengillashtirilgan” “Xamsa”ni o'qimoqdalar, asliyatga asoslangan barcha nashr hozircha yo'q. Umid qilamizki, yaqin vaqt ichida bu kamchiliklar bartaraf qilinadi va Navoiy muhiblari asarning shoir hayotlik davrida ko'chirilgan matnini o'qiydilar.

Abdurasul ESHONBOBOYEV
tarjimai



KUZATUV

TARAQQIYOTNING BOSH OMILI NIMADA?

KO'PCHILIKNI O'YLANTIRGAN SAVOLGA JAVOB

Faqat johil kishi inson huquqlari va erkinligi borasidagi me'yorlarni toptashi, o'zgalarni undan mahrum etish asnosida, o'zi va yaqinlarini ham bu mahrumlikka sherik qilishi mumkin. Bunga asosiy sabab nima, degan savolga esa, jamiyatdagi diniy qarashlarning xato talqinidan kelib chiqqan johilona qadriyatlar, deb javob beruvchi kishilar ham bor.

Ammo boshqa omillarni ham unutmaslik lozim. "Hokimiyat – qonundan yuqori" degan qarash bilan yashaydigan kishilardan iborat jamiyatda faqat johilona qarashlar rivojlanib, huquqiy madaniyat tanazzulga yuz tutib boraveradi. Huquqiy ong va madaniyat shakllanmagani bois, jamoatchilik nazorati hech qachon amaliyotga tatbiq etilmaydigan bunday davlatlarning fuqarolari muntazam tarzda g'oyaviy-mafkuraviy bosim ostida ushlanadi. "An'ana", "madaniy xususiyat", "o'ziga xoslik" yoki "diniy me'yor" degan bahonalar bilan inson huquqlari toptalave-radi. Qonuniy huquq va erkinliklar butun-lay yo'qolib, korrupsiya gullab-yashnaydi. Jamiyatning siyosiy va iqtisodiy salohiyati nolga tenglashgach, alamzada kishilarning adolattalablik hissi sabab radikallashuv vujudga keladi.

Demak, johilona qadriyatlardan tashqari, huquqiy savodxonlikning pastligi, huquqiy ong va madaniyatning shakllanmagani ham inson huquqlarining toptalishiga asosiy sabablardan biri bo'ladi.

G'ARB DEMOKRATIYASI TARIXIDAN SABOQLAR

Huquq haqida so'z ketganda, G'arb jamiyati tarixida sodir bo'lgan diniy islohotlar borasida to'xtalib o'tish joiz. XVI asrda Yevropada katta ahamiyatga ega bo'lgan protestant harakatlari, Martin Lyuter, protestantlar va katolik cherkovi o'rtasidagi kurash haqida tarix darsliklarida o'qiganmiz. Ammo bu voqealarning oxir-oqibat nimaga olib kelgani borasida teran xulosa qilavermaymiz.

Jorj Marshall nomidagi strategik xavfsizlik markazi professori Aleksandr Garin jurnalist Irina Lagunina bilan bo'lgan suhbatida ("Ma'rifat" gazetasining 2003-yil 14–21-iyun sonlarida e'lon qilingan) bu tarixiy hodisalarni tizimli tahlil qilib bergan. Unda cherkov va davlat munosabati, cherkov hukmronligiga qarshi huquqiy harakatlar, jamiyatning diniy va siyosiy ozodlik uchun kurashi oqibatida yuzaga kelgan qonunchilik va konstitutsiyaviy tizim, Yevropa mamlakatlarida siyosiy huquqlar va fuqar erkinliklarining bosqichma-bosqich tarzda shakllanishi, xalq irodasi va parlament hokimiyatiga yo'l ochgan hodisalar haqida ijtimoiy-tarixiy xulosalar o'rta-ga tashlangan.

Garinga ko'ra, demokratiya G'arbda tabiiy jarayon sifatida emas, balki tinimsiz kurashlar, islohotlar va falsafiy bahslar natijasida yuzaga kelgan. Yevropa tarixidagi har bir bosqich – diniy va konstitutsiyaviy islohotlar – demokratiya taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Demakki, G'arb demokratiyasi diniy-siyosiy kurashlar va falsafiy izlanishlar yo'lini bosib o'tgan. E'tibor qilsak, bu hodisalar ko'hna qir'ada demokratik qarashlarni mustahkamlashga olib kelganini anglaymiz.

HUQUQSIZ DEMOKRATIYA BO'LMAYDI

G'arb demokratiyasining asosiy tarixiy bosqichlari xususida so'z ketganda, XI–XII asrlarda sodir bo'lgan Investitura nizosi, ya'ni imperatorlar va papalar o'rtasidagi bahslar natijasida cherkov va davlat vakolatlari ajratilganini alohida eslash shart. Ayni shu hodisa tufayli Yevropada huquqiy chegaralar va har bir institutning o'ziga xos huquqi e'tirof etilgan. XIII asrda Angliyada qirol Jon Laklend majburiy imzolagan hujjat – "Magna Carta" ("Katta erkinliklar xartiyasi") ilk bor "qirol ham qonunga bo'ysunishi shart" degan tamoyilni huquqiy jihatdan mustahkamlagan. Bugungi demokratiya va inson huquqlari nazariyasining dastlabki qadamlaridan biri hisoblangan bu hujjat "Hech bir hokimiyat qonundan yuqori emas, fuqaro erkinligi davlat tomonidan himoya qilinishi lozim" degan qarashni "huquqiy davlat" g'oyasining asosiga aylantirgan.

Umuman, Yevropada demokratik taraqqiyotga turkii bergan ko'plab tarixiy hodisalar mavjud. Masalan, XVII asrda Angliya parlamenti tomonidan qabul qilingan "Bill of Rights" ("Huquqlar deklaratsiyasi") fuqarolarning asosiy huquqlari qonun himoya-sida bo'lishini, monarxiya vakolatlari chek-



lanishini belgilagani bois, zamonaviy konstitutsionalizmning huquqiy asosiga aylangan. XVIII asrdagi fransuz inqilobi va 1789-yili qabul qilingan "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" ham demokratik taraqqiyot rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. XIX asrga kelib, Yevropa va AQSHda huquqiy bilim va huquqshunoslik sohasi taraqqiy etishi tufayli davlat tizimlari rivojlanib, fuqaro huquqlari konstitutsiyaviy himoyaga ega bo'lgan.

Huquq tizimi qonun ustuvorligi, tenglik va erkinlikni ta'minlagani uchun G'arb demokratiyasi bugungi kungacha yashab kelmoqda. Demak, huquqiy rivojlanish na-faqat demokratik taraqqiyotning eng muhim omili, balki, asosi hamdir. Davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun iqtisod, ma'rifiy sekulyarizm ham muhim omilligini e'tirof etgan holda, aytish mumkinki, huquqiy ongni rivojlantirish, huquqiy tizimni kamol toptirish ham o'ta muhim. Chunki huquq tizimi zaiflashsa, demokratiya o'z mohiyatidan uzoqlashib, amalda avtoritar yoki oligarxik tuzum shakllanishi mumkin.

SHARQDA KUZATILGAN VA KUZATILAYOTGAN HOLAT

Ayrim Sharq davlatlarida shar'iy huquq hukmronligi, fuqarolik huquqlarining cheklangani, mustaqil sud tizimining yo'qligi yoki zaifligi, parlament va qonun chiqaruvchi organlar faqat qog'ozda mavjud bo'lgani uchun institutlarning o'jizligi, iyerarxiik, qabiladoshlik yo urug'-aymoqchilik tizimi qonundan ko'ra ta'sirliroq ko'rinish olgani kuzatiladi.

Huquq rivojlanmagan joyda demokratik qadriyatlarining jamiyatga singishi sekin kechadi. Saylovlar va siyosiy islohotlar o'tkazilsa ham, huquqiy mexanizmlar ularni amalga oshirishga qodir bo'lmagani bois, bu harakatlar shunchaki formal ko'rinish oladi. Masalan, aksar Sharq davlatlari konstitutsiyasida demokratiik me'yorlar belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, sud mustaqilligi va qonun ustuvorligi ta'minlanmagani uchun ular amalda ishlamaydi. Ammo bu mutlaq shunday degani emas. Aslida, Sharqda ham huquqiy an'analari boy tarixga ega. Masalan, Islom huquqi (fiqh), Xitoyda Konfutsiy qonunchilik an'analari, Turkistonda Amir Temur "Tuzuklar"idan kelib chiqqan, adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynagan tizimlar bor. Lekin bu huquqiy tizimlar fuqarolik huquqlarini emas, davlat va jamiyat intizomini muhofaza qilishga yo'naltirilgan. Shu sababli, demokratiya uchun zarur bo'lgan so'z erkinligi, siyosiy tenglik, mustaqil sud kabi omillar cheklangan holda rivojlangan va bu holat demokratik qadriyatlarining o'zlashtirilmasligiga sabab bo'lgan.

Bundan "holat bugun ham o'zgarmagan", degan xulosaga kelish noto'g'ri. Chunki bugungi zamonaviy Sharq davlatlari, xususan, O'zbekiston ham huquqiy islohotlar, sud mustaqilligi va qonun ustuvorligiga alohida e'tibor qaratayotgani barchaga ma'lum.

O'ZBEKISTONNING HUQUQIY ISLOHOTLARI

O'zbekistonda so'nggi yillarda sud-huquq tizimini takomillashtirish bo'yicha jiddiy qadamlar tashlanmoqda. 2023-yili amalga oshirilgan Konstitutsiya islohoti inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yanada mustahkamladi. Sud mustaqilligi Konstitutsiya darajasida e'tirof etilib, sudyalarni tayinlash va ozod etish tizimi takomillashtirildi. Ularning mustaqil faoliyatini kafolatlaydigan Sudyalari oliy kengashi tuzildi. Sud qarorlari ustidan shikoyat qilish va apellyatsiya mexanizmlari kengaytirildi.

Inson huquqlari sohasidagi o'zgarishlar sabab, O'zbekiston BMTning ko'plab xalqaro konvensiyalarini ratifikatsiya qildi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazi, Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) instituti faoliyati rivojlantirildi.

Jamoatchilik nazorati va OAV erkinligida yaqqol ijobiy o'zgarishlar kuzatilgani holda, davlat organlarining oshkorlik va hisobdorlik qonun bilan kafolatlandi. Bundan tashqari, iqtisodiy huquqlar borasida zarur choralar ko'rilib, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha alohida vakolatli tuzilma – Biznes-ombudsman tashkil etildi.

Elektron hukumat va onlayn sud tizimlari orqali fuqarolarning huquqiy imkoniyatlari, davlat hokimiyati organlarining nodavlat tashkilotlar, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi kengaytirildi. Maktab va oliygohlarda huquqiy savodxonlik va maxsus ta'lim dasturlari takomillashtirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda "qonun barchaga barobar" degan tamoyilni amalda qaror toptirish bilan bir qatorda, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

HUQUQ VA DEMOKRATIYA TENGSIZLIGI

Bu holat dunyoning turli davlatlarida har xil darajada kuzatiladi. Ba'zi G'arb davlatlarida huquqiy tizim mustahkam bo'lgani sababli, sudlar mustaqil, qonun ustuvor, siyosiy partiyalar va parlament instituti barqaror ishlaydi. Shuning uchun jamiyatga demokratik qadriyatlarining singishi oson. Ayrim Sharq

buziladi. Bunday jamiyatlarda korrupsiya yoki radikallashuv muhiti yuzaga keladi. Fuqarolar va davlat o'rtasida ishonch yo'qolib, odamlar qonunga emas, shaxslarga yo tanish-bilishlariga ishona boshlaydi. Natijada korrupsiya tabiiy "boshqaruv mexanizmi"ga aylanadi, iqtisodiy rivojlanish sekinlashib, chet el investitsiyasi qochadi, davlatning ichki resurslari shaxsiy manfaatlariga sarflanadi.

Eng yomon jihati, korrupsiya tufayli ildiz otgan adolatsizlik hissi radikallashuvning asosiy sababiga aylanadi. Negaki, qonun quvvatsiz bo'lgan joyda ayrimlar "haqiqiy adolat"ni davlatdan emas, balki radikal kuchlardan qidiradi. Shuning uchun terrorchilik va ekstremistik harakatlarning aksari: "Biz adolat olib kelamiz, chunki hukumat olib kelolmadi", degan da'vo bilan o'rta-ga chiqadi.

Qonun quvvatsiz bo'lgan davlatlar ikkita katta xavfdan hech qachon qochib qutulolmaydi. Birinchisi, korrupsiyaning tizimli kuchayishi bo'lib, mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga olib keladi. Ikkinchi xavf – radikallashuv muhitining kengayishi siyosiy va diniy ekstremizm uchun "eng yaxshi o'g'it" vazifasini bajaradi.

Mamlakatda huquq tizimining zaifligi sababli korrupsiya ildiz otsa, byudjet defol'ti, xizmat ko'rsatish va xususiy sektor kollapsi yuzaga keladi, milliardlab mablag'lar sirli yo'llar bilan g'oyib bo'ladi, bularning barchasi radikallashuv omilini jadallashtiradi. Jismoniy zo'ravonlik, ommaviy norozilik, qurollangan guruhlarining paydo bo'lish ehtimoli oshib boradi. Oqibatda davlat va jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Shu bois, huquqshunos ekspertlar barcha davlatlarni "qonun zaifligi + korrupsiya + radikallashuv" kombinatsiyasiga tushib



davlatlarida huquqiy baza mavjud bo'lsa ham, amalda qonun ustuvorligi zaif. Inson huquqlari qonunlarda yozilgan, lekin amalda to'liq kafolatlanmagan.

Markaziy Osiyodagi ba'zi davlatlarda konstitutsiyalar demokratik tamoyillarni e'lon qilgan, ammo sud mustaqilligi va qonun ustuvorligi borasidagi muammolarga to'la barham berilmagan. Xitoy, Eron, Saudiya kabi mamlakatlarda davlatning siyosiy ustuvorligi ustun qo'yiladi. Qonun ko'proq davlat apparatini muhofaza qiladi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston kabi mamlakatlar huquqiy tizimni rivojlantirishga e'tibor bergani uchun demokratik tamoyillar samarali kafolatga ega.

Qonunlar faqat ma'lum shaxslar foydasiga ishlasa, huquqiy va demokratik muvozanat

qolishdan ogohlantirib keladi. Qonun harakatsizligi ortidan yuzaga keladigan radikal-lashuv mamlakatni eng qisqa fursatda vayronkor halokatga boshlaydi, eng chuqur va uzoq muddatli halokatni esa barcha institutlarni to'liq ishdan chiqargan holda, korrupsiya olib keladi.

IJOBIY YECHIM QAYERDA?

Tarixiy va zamonaviy tajribalardan ko'ri-nadiki, huquq ilmini rivojlantirmasdan turib, jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash mumkin emas. Savol tug'iladi: xo'sh, bu ilmini rivojlantirish, mamlakatning barcha fuqarolari ongiga yetkazish uchun qanday ijobiy yechim mavjud?

AQSH maktablarida "Civics education" ("Fuqarolik ta'limi") va "Law-related education" ("Huquqiy ta'lim-tarbiya") dasturlari mavjud. Ular konstitutsiya asoslari, fuqarolik huquqlari, sud tizimi va qonun ustuvorligi bo'yicha bilim beradi. Ayrim shtatlarda "Mock trial" ("Simulyativ sud jarayonlari") mashg'ulotlari ham bo'lib, o'quvchilar huquqiy fikrlash va adolat hissini shakllantirish uchun prokuror, advokat, sudya rollarini o'ynaydi. Shu bois, AQSHda huquqiy savodxonlik yuqori, kishilar sud orqali o'z huquqini talab qila oladi.

Angliya ta'lim tizimiga 2002-yildan "Citizenship education" ("Fuqarolik ta'limi") majburiy predmet sifatida kiritilgan. Unda huquqiy bilim, fuqarolik mas'uliyati, saylov, parlament, sud va boshqa tizimlardagi demokratik jarayonlar o'rnatiladi. Maktablarda "Law in Action" ("Amaliy qonun") va "Crime and Society" ("Jamiyatdagi jinoyatchilik muammolari") kabi fakultativ kurslar ham bo'lib, ular kriminologiya va kriminalistika asoslarini o'rganishga yordam beradi.

AQSH va Angliyada maktab dasturlariga rasman kiritilgan, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya va Niderlandiya kabi mamlakatlarda fuqarolik yoki jamiyatshunoslik fanlari tarkibida o'qitilayotgan kriminologiya fani (lotincha "crimen" – "jinoyat", "logos" – "ilm, ta'limot") jinoyat va jinoyatchilikka olib keluvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va huquqiy omillarni o'rganadigan kompleks fan hisoblanadi.

Jinoyatni tekshirish va dalillar bilan ishlash ilmini o'rgatadigan kriminalistika AQSHda ko'plab o'rta maktablarda kurs sifatida, Yevropaning Buyuk Britaniya, Chexiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Avstriya va Ispaniya davlatlarida oliy ta'lim tizimida, ayrim mamlakatlarda litsey va gimnaziyalarning yuqori sinflarida maxsus yo'nalish yoki seminar shaklida o'rnatiladi.

SHU FANLARNI MAKTABDA O'QITISH SHARTMI?

Bu masalani Ichki vazirlikning Jamoatchilik kengashi yig'ilishida vazir maslahatchisi, General-polkovnik Zokir Almatov ko'targan edi. Mavzuni o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, aksar ekspertlarning fikricha, kriminologiya va kriminalistika fanlarini maktab ta'limiga integratsiyalashgan holda kiritgan chindan afzal ekan.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, maktab dasturida "Huquqiy madaniyat" va "Fuqarolik jamiyati asoslari"ni majburiy fan sifatida joriy etib, unda kriminologiya va kriminalistika elementlarini integratsiyalash mumkin. Shuningdek, ushbu fanlarni amaliyot asosida o'qitish, sud jarayoni simulyatsiya-si, huquqshunoslar ishtirokida seminarlar tashkil etish, yoshlarning huquqiy faolligini qo'llab-quvvatlash, debat klublari, huquqiy masalalarda blog va media loyihalarni yo'lga qo'yish ham maqsadga muvofiq.

BUNDAN TASHQARI

OAVning huquqiy ongni rivojlantirish-da, radikallashuv va korrupsiyaga qarshi kurashda hech qanday omil bilan tenglashtirib bo'lmaydigan jihatlarni ham inobatga olish lozim.

Aniq maqsadga xizmat qiluvchi Media markazlar va OAV qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunarli tarzda yetkaza oladi. Shu bois OAV shaffoflikni ta'minlaydigan asosiy kuchlarning biri hisoblanadi. OAV orqali huquqiy bilimni samarali ommalashtirish mumkinligini Angliya va AQSHdagi "Public legal education" (Ommaviy huquqiy ta'lim) dasturlari allaqachon isbotlagan.

JADIDLAR JIDDIY QARAGAN MASALA

Tarixdan ma'lumki, jadidlar jamiyat va davlatda huquq ustuvorligi va huquqiy davlat tamoyili masalasiga juda jiddiy qaragan. Jadidlar uchun bu masala faqat huquqiy tizim emas, balki millatning ma'naviy, siyosiy va madaniy uyg'onishi edi. Shuning uchun ular shaxs erkinliklarini huquqiy mustahkamlashga oid konstitutsiyaviy g'oyalarni ilgari surgan.

Ha, huquqiy savodxonlik, huquqiy ta'lim va targ'ibot masalasiga jiddiy e'tibor qaratish o'ta muhim. Mavzuning muxtasar xulosasi shuki, huquq ustuvor bo'lgan mamlakatda yashaydigan hayvon ham huquqsiz jamiyatda yashayotgan fuqarodan ko'proq huquqqa ega. Shunday ekan, maktab ta'limida huquqiy fanlarni yanada takomillashtirish, OAV orqali huquqiy savodxonlikni muntazam tarzda targ'ib etishga jiddiy e'tibor qaratish shart. Chunki huquq – taraqqiyotning bosh omillaridan biridir.

Abdulhamid MUXTOROV,
"Ziyo" media markazi direktori



SAN'AT OLAMI

BOBOLARIMIZDAN QARZDORMIZ

O'zbekiston xalq artisti Karim MIRXODIYEV bilan suhbat

– Karim aka, **Mustaqillik ayyomi arafasida “O'zbekiston Respublikasi xalq artisti” unvoni bilan taqdirlanganingiz san'at ixlosmandlari va muxlisaringiz uchun ham quvonchli voqea bo'ldi. Gazetamiz tahririyati va ko'p sonli o'quvchilarimiz nomidan, kechroq bo'lsa-da, ushbu oliy mukofot bilan muborakkab etamiz.**

– E'tibor uchun rahmat! Bu mukofot, to'g'risi, men uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Men 24 yil, Tohir Saidov 20 yil oldin “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist” unvoniga munosib ko'rilganmiz. “O'zbekiston xalq artisti” faxriy unvonini, avvalo, davlatimiz rahbarining san'atga qaratayotgan e'tiborining yana bir namunasi, qolaversa, milliy san'atimiz rivojiga baholi qudrat qo'shayotgan kamtarona mehnatlarimizning yuksak e'tirofi deb bilaman.

Xalqimiz ozmi-ko'pmi bizni taniydi, rollarimizni biladi. Har holda, “Qaysi xizmatlari uchun?” degan savollar bo'lmadi. Aslida, bunga mendan ham loyiqroq san'atkorlar ko'p, deb o'ylayman. Yana nima deyish mumkin? Davlatimiz e'tibori, ustozlarimiz sabog'i, muxlislarning qo'llab-quvvatlashi bizni shu martabaga yetkazdi. Taqdir, nasiba deganlari shu bo'lsa kerak.

– San'at olamida qariyb yarim asrlik yo'lni bosib o'tdingiz. Ulug' aktyorlar bilan ishladingiz. Ulardan o'rgandingiz, o'zingiz ham yoshlarga o'rgatyapsiz. Shu ma'noda, bugungi aktyor va aktrisalar haqida fikringizni bilmoqchi edik.

– Aktyor san'atda o'zini mehmomon emas, mezbob deb bilsa, asl obrazlar yarata oladi. Kinoga arzon shon-shuhrat, bir-ikki so'm daromad yo yengiltak ko'ngilning o'tkinchi havasini bosish ilinjida qadam qo'yg'alar ham ko'p. Tarixni gapirmay, 4-5 yil oldin porlab turgan qanchadan qancha qiyofani bugun hech kim eslamaydi. Ularning o'zlari ham o'ynagan rollarini qaytib ko'rmasa kerak.

Qay bir darajada rol o'ynash mumkin, lekin san'atni o'yinchoq qilish mumkin emas. Aslo! Bugun nima bo'lyapti? Aktyorning siri ko'tarilib ketdi. Ustozlarimiz sahnada ikki soat rol o'ynasa yoki to'rt soat suratga olish jarayonida bo'lsa, yetti-sakkiz soat repetitsiyada yoki kutubxonada bo'lardi. Ustozlarimiz o'zini o'zi reklama qilish, uyushtirilgan savollarga javob berish, umuman, ishdan tashqarida omma diqqat markazida bo'lishni yoqtirmagan. Bu kibrdan emas, ular xalqning mehrini yo'qotib qo'yishdan cho'chib, tinimsiz ishlagan. Obro' qozonish hamma zamonlarda oson bo'lgan, lekin uni saqlab qolish qiyin. Mana, gap qayerda?

Ayrim hamkasblarimiz, ayniqsa, yoshlarning Internetdagi tiyiqsiz chiqishlarini ko'rib, ularning maqsadini tushunmay qolaman, to'g'risi. Odam baxtli damlarini xalq bilan bo'lishsa, zarari yo'qdir. Lekin har bir qadamlar elga doston qilib, tomoshabinni o'zidan bezdirishning oqibati nima bo'ladi? Maishiy fonda ko'zni o'rgatib qo'yan aktyorning

ijrosiga kim ishonadi keyin? Kechirasiz, sohilda tushgan ochiq-sochiq suratini Internetga qo'yib, keyin ekranda xaloskor yoki ma'suma qiyofasida chiqsa, bu yog'i qanchadan tushadi?

Yoshlarga ertakday tuyuladi. Lekin biz ko'chada Hamza Umarov yoki Nabi Rahimovni ko'rib qolsak, hayajondan qotib qolardik. Mabodo, o'qish yo spektakllar yakunida salomimizga alik olib qo'ysa, maqtanib yurardik. Chunki ular nihoyatda sirli, salobatli odamlar edi.

Hozir bolangiz tengilar ham so'rab-netib o'tirmay mikrofonini naq burningiz tagiga olib kelib, kamerasi peshonangizga tirab so'roq-savol qilishga o'tadi. Savol so'rashning ham madaniyati bor, joyi, tartib-qoidasi bor. Men bunday narsalarni qabul qilmayman. Mayli, Internetda trendga chiqmay, lekin o'zimning prinsiplarimdan chekinmayman. Shuning uchun ko'pincha intervyu va suhbatlarni rad etaman.

– Demak, suhbatimizning bir oy orqaga surilgani sababi ham shunda...

– Rosti, “Jadid” gazetasining nomini birinchi eshitganimda yoq sergak torganman. Chunki san'atkorlar ma'rifatparvar bobolarimizdan qarzidor. O'zbek kinosi yulduzlarini aynan jadid teatri

tan olmaydi. Birinchi qismdagi obrazni oxirigacha saqlab turishga majbursiz. Hatto, mimikalar, tana harakati, eng muhimi, nigohlardagi ifodaning o'zgarishi ham tomoshabin e'tiboridan chetda qolmaydi. O'sha Egamqul o'zida o'z davridagi o'zbek erkagi kayfiyatini aks ettirgan. O'zbekda qanaqa xislatlar bo'lsa, hammasi mujassamlangan.

Fe'l-atvorimga keladigan bo'lsak, mujmalilik, mavhumlikni yomon ko'raman. Gapirganda ham shunaqa, betga aytganning zahri yo'q, deb o'ylayman. Nafratim ham, sevgim ham aniq bir nuqtaga yo'naltiriladi.

Aktyor o'ziga berilgan rolga vijdonan yondashib, bor mahoratini ko'rsatib, qahramonini yuzaga chiqarishi kerak. Lekin har doim ham obraz va shaxsiyat mos tushavermaydi. Kino va teatrning mashaqqatlaridan biri ham shunda – mutlaqo yangi xarakterni olib chiqasiz, mutlaqo boshqa odamga aylanassiz. Nima bo'lganda ham, rolda, albatta, bir parchangiz bo'y ko'rsatadi. Busiz jonli chiqmaydi.

– Yaqinda ustozlar bayramini nishonladik. Sizning hayotingizda ustozlarning o'rni qanday?

– Bugun siz Karim Mirxodiyev bilan suhbat uchun kelgan



tarbiyalab bergan. Shu vajdan, o'zimning qolipimdan chiqib, suhbatga tayyorgarlik ko'rishimga vaqt kerak bo'ldi.

– Aktyor shaxsiyatiga yaqin rollarni tanlaydi, har bir rolda o'zining bir parchasi bo'ladi, degan gaplarga qanday qaray-siz? “Kichkina tabib”dagi Teshavoy, “Yulduzingni ber, osmon”dagi Shukur, “Charx-palak”dagi Egamqul obrazlari ichki dunyongizga qanchalik yaqin?

– Sanaganlaringiz orasida zalvori og'iri – Egamqul obrazi. Chunki serialda suratga tushish kinodan ko'ra ancha murakkab. Avvalo, jarayon uzoq vaqt davom etadi. Oylar, hatto, yillarga cho'zilgan suratga olish jarayonida shaxsiy hayotingizda, ichki dunyongizda, sog'ligingizda, jamiyatda turli-tuman o'zgarishlar, evrilishlar sodir bo'ladi. Lekin avvaldan yozilgan ssenariy buni

bo'lsangiz, Karim Mirxodiyev shu joygacha ustozlari sharofati bilan yetib kelgan.

Qarang, men maktabda rus tilida o'qiganman. Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomlik institutiga kirish imtihonlarida insho yozish kerak ekan. Ijodiy sinovlardan o'tdim. Inshodagi g'alizliklar-u imlo xatolarini o'zingiz tasavvur qilavering. Shu payt domlaldan biri – Rahmat Sayfuddinov ijromdan qoniqdi, shekilli, yozganimni komissiya oldiga qo'yib, “Mana shu bolaga yordam qilaylik. Talanti barga o'xshayapti. Mayli, kirsin, kamchiligini bitirgancha to'ldirib oladi”, dedi. Komissiya ustozning yuzidan o'ta olmadimi yoki boshqalarga ham amaliy ishim ma'qul bo'ldimi, har holda, talaba bo'ldim.

Hali talaba paytimiz, kimsan Baxtiyor Ixtiyorov institutga kelib, diplom spektaklimizni ko'rgan. Biz bungacha u kishini faqat kinolarda ko'radik. Yakunda



sahnaga chiqib: “Shu kunni eslab qolinglar! Husan Musaboyev, Malika Begmatova (Qayumova), Karim Mirxodiyev, shu bugundan e'tiboran sizlar “Yosh gvardiya” teatrining aktyorlarisiz!” deb e'lon qilgan. Professional sahnaga ilk qadamim “O'n sakkiz yoshligim” spektaklidagi bosh roldan boshlangan.

“Ilhom” teatrida ishlagan paytimda bosh rejissyorimiz Anatoliy Qobulov meni yangi filmga tavsiya qildi. Sinovdan so'ng To'lepbergen Qayipbergenovning “Qoraqalpog' qizi” romani asosida olingan “Bo'ysunmas” badiiy filmidagi bosh qahramonlardan biri – Turumbet roliga qabul qilishdi. U asosiy qahramon – Jumagulning (Tamara Shokirova ijrosida) turmush o'rtog'i bo'ladi. Filmda Xalq artisti Nabi Rahimov bilan suratga tushganmiz. Bundan ortiq omad bo'ladimi? Shu tariqa, ustozlarimning tavsiyalari bilan kinoga ham bosh rollarda qadam

yo'qman. Shu ma'lumot manbayi aniqlansa, tuzatib qo'yishlaridan umidvorman.

– Kino – yarim san'at, yarim sanoat, degan gap bor. Ammo bugun bu soha to'liq sanoatlashib ketayotgan holatlar ham oz emas. Xontaxta seriallar-u, yengiltak filmlar ijtimoiy tarmoqlar, saytlarda urchib yotibdi. Yoshlarning ham rollarga bo'lgan munosabati shunga yarasha. Bo'lg'usi san'atkorlarga qaysi sohalarni chuqurroq o'rganishni maslahat berasiz?

– Aktyor hamma sohadan boxabar bo'lishi kerak. Unga qachon va qanday rol tegishini bilmaydi-ku. Tasviriy san'atni ham tushunishi, adabiyotni, musiqani ham his qilishi kerak. Kino va seriallardagi eng ta'sirchan sahnalarning kelib chiqishini astoydil o'rgansangiz, albat, ularning ortida bir mashhur rassomning kartinasi turgan bo'ladi. Suratlardagi holat va kayfiyatni astoydil o'rganish obrazga jon baxsh etadi. Rembrandtning “Adashgan o'g'ilning qaytishi” degan asari bor. Deylik, kinoda afsus va tavba-tazaru epizodi bor. Holatni chiqarib bera olmayapti aktyor. Tayyor “shpargalka”dan esa xabari yo'q. Shuning uchun “Kuzatinglar. Aktyor kuzatuvchan bo'lishi kerak, eslab qolishi kerak”, deyman yoshlarga.

Yana bir jihati, tasavvur ham keng bo'lishi kerak. Kulgi sahnasini amallasa bo'lar, lekin yig'i va g'azabni sun'iy chiqarib bo'lmaydi. Ko'zingizga dori tomizib yosh chiqararsiz, ammo nigoh sotib qo'yadi-ku. Shuning uchun, aktyor hayotning baland-pastini ko'rgan bo'lsa, yana yaxshi. Ayni suratga olish chog'ida o'zini bir vaqtlar g'azablantirgan voqeani eslab qoladi. Xayolida jonlantiradi. Mana, tayyor obraz. Jonli.

Nazarimda, bugun kinoda yuzakilik ortib boryapti. Bu xuddi muqovasi yaltiroq jurnalga o'xshaydi: cho'royli, o'ziga jalb qiladi, ichini ochirgan “pichoqqa ilinadigan” narsa yo'q. Ijrolarda ichki hislar yo'q. Samimiylik yo'q. Shunga qaramay, juda kam bo'lsa-da, ko'rishga arziydiganlari ham chiqadi.

Avvallari tomoshabin didi haqida boshqalar qayg'urardi. Endi har kim o'zi uchun harakat qilishi kerak. Odamlar qo'lida imkoniyat keng: izlasin, topib ko'rsin arziqli filmlarni. Agar buni istamasa, demak, “oldiga qo'yganni yemoq”dan boshqa chora yo'q. Aytse, gap ko'p. Ishlash kerak.

– Qisqa va mazmunli suhbatlingiz uchun rahmat. Sizni yangi va yaxshi rollarda kutib qolamiz.

Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.

JAHON AYVONIDA

TURKIY TIL OILASI KUNI

Turkiya prezidenti Rajab Toyib Erdo'g'an 15-dekabri Butunjahon turkiy til oilasi kuni etib belgilashni taklif qildi. U bu haqda Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining Gabalada bo'lib o'tgan 12-sammitida so'z ochdi.



Turkiya rahbari ushbu tashabbusni 30-oktyabr kuni Samarqandda boshlanadigan UNESCOning 43-konferensiyasida taqdim etishni tavsiya qilgan. Shuningdek, hozirda tashkilotda kuzatuvchi maqomida qolayotgan Turkmanistonning yaqin kelajakda TDTga to'laqonli a'zo bo'lishini xohlashini ham bildirgan.

PLASTIK OPERATSIYALAR OMMALASHDI

Eronda ayollarning kredit yoki qarz hisobiga plastik operatsiyalarni amalga oshirishi ommalashmoqda. Bu haqda “Iran International” xabar berdi.



Mamlakatda tanani o'zgartirishga qaratilgan jarrohlik amaliyotlari soni keskin oshgan. Eronlik ayollar Braziliya va Janubiy Koreya fuqarolari singari uzoq yillardan beri plastik jarrohliklarga, ayniqsa burun operatsiyasiga qiziqib keladi. Hozir esa liposaksiya (teri osti yog'ini olib tashlash), qorin terisini tortish va boshqa shu kabi amaliyotlarga ham talab ortgan.

Statistikaga ko'ra, Eronda plastik operatsiya mijozlarining qariyb 80 foizini ayollar tashkil qiladi. Har yili bunday operatsiyalar soni yuz minglab holatlarga yetadi.

LASLO KRASNAXORKAI

2025-yilgi Adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.



Venger yozuvchisi ushbu nufuzli mukofotni “o'ziga xos badiiy uslubi va inson taqdirini chuqur aks ettirgani” uchun oldi. Nobel qo'mitasi uning asarlarini falsafiy chuqurligi va til mahorati uchun yuqori baholadi.

UMRAGA RUXSAT

Endilikda Saudiya Arabistoni hududida barcha turdagi viza egalari Umra ibodatini ado etishi mumkin. Bu haqda mamlakatning Haj va Umra vazirligiga tayanib, “Gulf News” xabar berdi.

Qayd etilishicha, bu qaror umra ziyoratchilari uchun jarayonlarni soddalashtirish, haj va umra tizimida xizmatlarning foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda Saudiya Arabistonining “Vision 2030” dasturi maqsadlarini qo'llab-quvvatlash doirasida qabul qilindi.

PEDOFILLAR BILCHILARI

Qozog'iston Sog'liqni saqlash vazirligi “Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritdi.



Hujjatga ko'ra, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan kimyoviy kastratsiya (bichish) ozodlikka chiqishdan 6 oy oldin qo'llanadi. Bunda kastratsiya majburlov chorasi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida amalga oshiriladi.



ADOLAT MUZEYIDAGI SUKUT FARYODI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ushbu muzey 2022-yilda, prokuratura organlari tashkil etilganiga 30 yil to'lishi munosabati bilan tashkil etilgan bo'lib, u 3500 dan ortiq eksponat, 1000 dan ziyod arxiv hujjatlari va tarixiy ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

Ikki asosiy qismdan iborat muzeyning birinchi bo'limida davlatchilik va huquq tizimining qadim davrlardan to'hozirgi kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari, prokuratura organlarining shakllanishi va rivojlanishiga doir 36 ta stend joy olgan.

1917–1940-yillar mobaynida prokuratura tizimida faoliyat yuritgan 170 nafarga yaqin xodim siyosiy qatag'onga uchragan, ulardan 30 nafari otuvga hukm etilgan. Ular haqda ko'plab yangi ma'lumotlar ushbu muzey orqali jamoatchilikka ilk bor taqdim etildi. Shuningdek,



misga olib o'tadigan zamonaviy texnologiyalar – mapping-shou (5D ko'rgazma), virtual ekskursovod, 3D gologrammalar, raqamli monitor

Jizzax qo'zg'oloni ishtirokchilari ustidan bo'lgan sud jarayoni, otuv va tergov sahnalari, GULAG mehnat lageri hayotini aks ettirgan sahna, "Qora qarg'a" nomi bilan mashhur bo'lgan tarixiy avtomobil, 1912-yilda qurilgan qamoqxona eshigi asosida tiklangan hibsxona – bularning bari tomoshabinni o'tmishning og'riqli, biroq unutilmas voqealariga olib kiradi.

"Hozirgina o'zbek xalqining asl farzandi – mashhur bastakor Mutavakkil Burhonovning to'rt nafar amakisi suratini ko'rib qoldim. Ular ham qatag'on yillarida nohaq ayblovlarga uchragan, – deydi O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi Rustam Abdullayev. – U paytda Mutavakkil Burhonov bor-yo'g'i 7-8 yoshda bo'lgan, ammo shunga qaramay, uning ham iziga tushishgan. Keyinchalik u mustaqillik ruhini musiqada jonlantirgan, Cho'lpon, Fitrat kabi o'z davrining yetuk shoirlarining she'rlariga romanslar, kuylar va musiqiy asarlar yaratgan buyuk bastakor sifatida yuksaldi.

Bugungi kunda bastakorlar uyushmasi a'zolari ham qatag'on qurbonlari xotirasiga bag'ishlab qo'shiqlar, musiqiy kompozitsiyalar yaratmoqda. Ushbu muzeydagi tarixiy dalillar, ayanchli taqdir, surat va hujjatlar qatag'on faqat huquqshunos va ziyolilarni emas, balki san'at ahlini ham qamrab olganini yana bir bor yaqqol namoyon etadi. Arxivlarda saqlanib qolgan plastinkalar orqali o'sha davr musiqasini asliga yaqin holda

tiklash, qayta jonlantirishga harakat qildik. Shu orqali muzeyga oz bo'lsa-da hissa qo'shganimizdan mamnunmiz".

Ekspozitsiyalarda mamlakatimizning turli hududlarida qatag'onga uchragan prokurorlar va ularning vatan ravnaqiga qo'shgan hissasi namoyon etilgan. Shular qatorida Abdurahim Yusufzoda, Boboxun Salimov, Sultonqori Jumaniyozov, Mirzo Qo'qonboy Abduxoliquov, Sa'dulla Po'latxo'jayev kabi fidoyilarning hayotiga bag'ishlangan mulyajlar yaratilgan. Ular faoliyatiga oid tarixiy materiallar, sud jarayonlari sahnalashtirilgan holda, audiovizual ta'sirli vositalar yordamida taqdim etilmoqda.

Ekskursiya chog'ida fidoyilarga bag'ishlangan ekspozitsiyalarni ko'zdan kechirgan mehmonlar orasida qatag'on yillarida aziyat chekkan oila vakillari ham bor edi. Ulardan biri – siyosiy fanlar doktori Ziyodilla Po'latxo'jayev xotiralari bilan o'rtoqlashdi: "Sovet ittifoqi buyruqlari o'zbek xalqini azoblashga xizmat qilgan, shunday holatlarda otam ularni bajarishdan bosh tortgan va sudlangan. Sud jarayonlarida unga qarshi ko'rsatmalar tuhmat ekanligi ayon bo'lib turganiga qaramay, nohaq hukm ijro etilgan. O'shanda u kishi: "Men bu sudni tan olmayman! Bu yerda adolatsizlik bo'lyapti!" degan. Ammo, baribir, otamni Sibirning eng og'ir sharoitli turmalariga 10 yilga yuborishgan. Bir necha bor unga: "Agar afv so'rasang, ozod etilsan", deyishgan. Lekin otam

har gal qat'i'y: "Aybi yo'q odam afv so'ramaydi. Men aybsizman!" deb javob qaytargan. Ming shukurki, bugun otamning pok nomi oqlandi. Bosh prokuraturamiz rahbariyati tomonidan u kishiga general formasi taqdim etildi hamda "Prokuratura faxriysi" unvoni berildi. Ushbu muzeyda esa u kishining yorqin xotirasi uchun alohida burchak tashkil etilgan. Shu orqali otamning nomi abadiylashtirilgani uchun chuqur minnatdorlik bildiraman".

Pastki bo'limdagi "Oyna" installyatsiyasi qatag'on yillaridagi jamiyat ko'zgusini, odamlar qalbidagi xavotir, qo'rquv va umidsizlikni obrazli ifodalaydi. Shuningdek, otuvga hukm etilgan 30 dan ortiq prokurorga bag'ishlangan fotoko'rgazma ham yaratilgan bo'lib, ularning siymosi orqali butun bir millatning jasorat va itilishlarini his etish mumkin.

Ta'kidlash joiz, ushbu muzey bir vaqtning o'zida ilmiy-amaliy markaz vazifasini ham bajarib kelmoqda. Unda prokuratura tarixiga oid 15 mingdan ortiq adabiyotni o'z ichiga olgan kutubxona faoliyat yuritmoqda. Albatta, bu yosh tadqiqotchilar va talabalar uchun bebaho ilmiy maskan hisoblanadi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Davlat va huquq institutining bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlari doktori Ravshan Hakimov muzey haqidagi fikrlarini shunday ifoda etdi: "Xorijiy davlatlardagi ko'plab muzeylarni ko'rgan inson sifatida ishonch bilan ayta olamanki, ushbu muzey ulardan kam emas. Ekspozitsiyalarning tuzilishi, mazmun va texnik jihatdan boyligi yuksak darajada. Muzeyning tashkil etilishida ko'plab mutaxassislar, ilmiy xodimlar, huquqshunoslar katta mehnat qilgani yaqqol sezilib turibdi. Menimcha, bu muzeyga ko'proq yoshlar, o'quvchilar jalb qilinishi lozim. Bu joy vatanparvarlikni, huquqiy ong va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi".

O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi haqiqatni gapiradigan, o'tmishga yuzlanib, kelajak uchun saboq chiqarishga undaydigan ma'rifiy maskandir. Bu yerda har bir detal, har bir hujjat, har bir ovoz va tasvir – adolat va jasoratning yorqin timsoli.

Shahriyor SHAHVAT

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.

Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Nabirxo'ja Saidxo'jayev – 1879-yili Toshkent shahrida tug'ilgan, imomlar oilasidan. Inqilobga qadar diniy maktabda dars bergan va bir vaqtning o'zida madrasa tahsilini ko'rgan.

Avvaliga imom-xatiblik qilgan. Keyinchalik Eski shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli Eshon Dodxoh madrasasida va Vaqf bo'limida xizmat qilgan.

O'zSSSR Ichki ishlar xalq komissarligi (IIXK) tomonidan Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, 1937-yil 9-avgustda hibsga olingan. "Sho'royi islom" tashkilotining a'zosi sifatida aholi orasida tizimli ravishda sovet hukumatiga qarshi targ'ibot olib borgan uchun 1937-yil 25-oktyabrda otuvga hukm etilgan.

Abbosxon Saidxonov – 1900-yilda Toshkentdagi Kamolon mahallasida aravakash oilasida tug'ilgan. Rus-tuzem maktabida, so'ngra yangi usul maktabida o'qigan.

1919-yilda Toshkent pochta bo'limiga, 1920-yil iyundan Eski shahar ijtimoiy-ta'minot bo'limiga rahbar etib tayinlangan. O'zSSSR moliya xalq komissari sifatida faoliyat yuritgan.

IIXK tomonidan "Milliy istiqlo" tashkilotiga a'zolikka ayblanib, 1937-yilda qo'lga olingan. Tashkilot ishida faol ishtirok etgani, qo'lga tushgach, respublika hududidagi milliy ozodlik harakati faollari shaxsini yashirgani uchun SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda o'tkazilgan sayyor sessiyasi hukmi bilan 1938-yil 4-oktyabrda otib tashlangan.

Muhitdin Ermatov – 1898-yil Qo'qon shahrida oddiy ishchi oilasida tug'ilgan. 1912–1914-yillarda "Yusuf Davidov savdo uyi" muassasasida qorovullik qilgan. Uch yil oddiy maktabda, bir yil rus-tuzem maktabida o'qigan.

1919–1937-yillarda eng quyidan yuqoriga tomon o'sib borgan. Yosh bo'lishiga qaramay, viloyat va respublika miqyosidagi mas'ul lavozimlarni egallagan. Xususan, turli yillarda ijtimoiy ta'minot bo'limi Beshariq punkti mudiri, Qo'qon shahridagi kooperativda kichik yordamchi, Rishton tuman inqilobiy qo'mitasi raisi o'rinbosari, Farg'ona viloyati ijroiya qo'mitasi ijtimoiy ta'minot bo'limi mudiri, viloyat oziq-ovqat qo'mitasi kollegiyasi a'zosi, Qo'qon uyezdi va shahar inqilobiy qo'mitasi raisi, uyezd partiya qo'mitasining mas'ul kotibi, Farg'ona viloyati kasaba uyushmalari kengashi raisi o'rinbosari, viloyat partiya qo'mitasining agitatsiya va targ'ibot bo'limi mudiri, O'zbekiston KP Markaziy Komiteti mas'ul instruktori, madaniyat kurslarini targ'ib etish bo'limi mudiri vazifalarini bajargan.

1937-yil 20-maydan Namangan shahar partiya qo'mitasi birinchi kotibi. Yangi lavozimga saylanganidan qirq kun o'tib, 1937-yil 2-iyulda "Milliy istiqlo" tashkilotiga a'zolikka ayblanib hibsga olingan.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 4-oktyabrda Toshkentda o'tkazilgan sayyor sessiyasida otuvga hukm qilingan, hukm o'sha kuniyoq ijro etilgan.

Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, AnDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimasi

(Davomi kelgusi son).



Huquqni muhofaza qiluvchi organlar akademiyasida "Davlat va huquq tarixi" ilmiy yo'nalishi tashkil etilib, prokuratura tarixi, ayniqsa, jadid prokurorlar faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar yo'lga qo'yildi.

Muzey haqidagi o'z taassurotlarini bayon etar ekan: "Ushbu muzeyning tashkil etilishi va konsepsiyasini ishlab chiqish jarayonida qisman bo'lsa-da ishtirok etganimgan faxrlanaman" – dedi tarix fanlari nomzodi, dotsent Shavkat Rahmatullayev. – Yakuniy holatini ko'rib, bu muzey haqiqatan ham xalqimizga xizmat qiladigan ma'naviy-ma'rifiy maskanga aylanganiga ishonch hosil qildim. Muzey ekspozitsiyasida an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar uyg'unlashgan".

Muzeyda tomoshabinlarni o't-

va audiogidlardan foydalaniladi. Bu orqali har bir tashrif buyuruvchi qayta sahnalashtirilgan jonli voqelikka guvoh bo'ladi.

Ekskursiya davomida yurtimizning ko'zga ko'ringan ijodkorlari ham muzey faoliyatiga yuqori baho berdilar. O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nur muzey haqida shunday fikr bildirdi: "Ijodkor sifatida ushbu muzeyning plastik yechimiga, undagi ekspozitsiyalarga san'atkorona ko'z bilan boqqan holda, bimalol aytish mumkinki, majmua xalqaro talablar darajasida yaratilgan. Dizaynerlar va muzeyshunoslar juda puxta ish olib borishgan. Muzey orqali prokuraturamizning nafaqat tarixi, balki buguni haqida ham to'liq tasavvur hosil qilish mumkin".



MA'RIFAT YOG'DUSI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ma'ruzalarni tinglab, jadidlik harakati butun turkiy olam va musulmon Sharqiga ta'sir ko'rsatgani va bu ta'sir kuchining ortishida Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va ijodi katta rol o'ynaganiga amin bo'ldik. Simpoziumdagi asosiy ma'ruzalar Behbudiy bilan bog'liqligi bejiz emas ekan.

Yana bir e'tiborga molik jihati ushbu ma'ruzalarning aynan xorijlik olimlar tomonidan tayyorlanganidir.

Qardoshlarimiz Almaz Ulvi, Kemal Yavuz, Gizem Saygili, Semih Torun o'z chiqishlarida Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, mintaqada birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun

zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga boshqosh bo'lgani, mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va 200 dan ortiq maqolalar yaratgani haqida so'z yuritdi.

Afsuski, atoliq adib va jamoat arbobi bo'lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo'lgan. Shunga qaramay, u XX asr birinchi yarmidagi turkiy dunyo ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy qiyofasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsata olgan. Shu ma'noda, ushbu simpoziumning alloma tavalludining 150 yilligi arafasida o'tkazilishida ham uning bebaho merosini yanada chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadi mujassam.

Ishirokchilar yopiliish sessiyasidan so'ng Shahidlar xiyoboni va Qatag'on

qurbonlari xotirasi davlat muzeyini ziyorat qildi. Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Adilbar xiyobonida bo'lib, mamlakatimizda ilm-fan va adabiyotga berilayotgan e'tiborning amaliy ifodasiga guvoh bo'ldi. Mehmonlar uchun Chirchiq shahriga ham sayohat tashkil etildi.

Shundan so'ng, jadidshunos olimlar delegatsiyasi Samarqand shahriga tashrif buyurib, bu yerdagi tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, jadidlar uy-muzeylarini

borib ko'rdi. Boqiy shaharning tungi manzaralaridan bahramand bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiyning tug'ilgan shahrida bo'lish simpoziumga o'zgaracha fayz bag'ishladi. Chunki Uchinchi Renessans sari odimlayotgan Vatanimiz poydevorining mustahkamligi, tarixiy ildizlarining chuqurligini bu yerda yanada teranroq his qilasz.

Simpozium Behbudiy ijodini tahlil etish borasida xalqaro tadqiqotlarga yangi eshiklar ochdi. Bu anjuman kelgusida o'zining ilmiy-amaliy samarasini berishi shubhasiz.

Otabek RAHIM



“Behbudiy afandi – qo'lig'a qalam olib, Turkistonning yangilik va yuksalishig'a hormay-tolmay, talashib-tortishib xizmat qilg'on birdan bir muharrir va yo'lbo'shchi.

Hoji MUIN





HAJV BURCHAGI

CHATJIPITI va TIRIK SHOIR

Alqissa, N. shahrining Ilonzor tumanidagi dong taratgan mavzega xizmat yuzasidan borishga to'g'ri kelib qoldi. Ko'rsatilgan manzilga yetib, o'ttiz uch qavatli boloxonador uyniing yap-yangi liftiga qadam qo'ydim. Ichkarida qotmadan kelgan, qanshariga qalin shishali ko'zoynak qo'ndirgan bir nusxa ikki kaftini shimining orqa cho'ntagiga tiqib, parvozga shaylangan bedanaday chog'lanib turar, chap burchakda bir sirmako'yalak, do'rdoq lab oynaga o'zini solish bilan band edi. Aliktsiz qolgan salomimga unchalik achinmay, o'ttiz birinchi qavat tugmasini ezib, tasdiqqa erishgach, devorga suyanib, taomilga ko'ra hamrohlarimni ko'z qirida kuzata boshladim.



Gumoningiz rost, igna urdrib, lab jonivorni qovoqari chaqqan zog'orabaliqnikiga o'xshatvogan subyekktga unchalik ta'bim tortmay, antiqa darozni ko'zdan kechira tushdim. Ochig'i, uning qilt etmay Don Kixotni haykaliday qotib turishi ensamni qotirdi. Egni-boshi suvoqchidan sal beri, tuxratidan yoshini aniq chamalash gumon: liftga kirar chog'im o'ttiz yoshlarda ko'ringandi, yonboshdan qaraganda ko'sa iyagiga yopishgan echkining emchagidagi tukday oqish yakkanam soqoli oltmish beshdan nariga ishora qilardi. Endi gapga solaman deb og'iz juftlagan chog'im lift muztog'ga urilgan "Titanik"day bir qar sillab qalqidi-yu "chmo'k" etib to'xtab, mushukko'z chirog'i pirillagancha qoldi.

Men: – O'bba qiztalog' -e!

Naynov: – Cho'rt poberi! Vot katas-trofa!

Do'rdoqlab: – Voy sho'rim! Ikkitabaarzangi erkak bilan-a?! Ov-v, ikkoving, ishingni o'ylab qil, man duch kelgan bilan qorong'i liftda tanishib ketadiganlardan emasman! Erim yo'q bo'lsa, mani aybimmas-u!

Naynov o'rischalaganiga bir xayolim gibridlardanmikin degan shubhaga ketdi. Gumonimga aniqlik kiritish maqsadida: "Oka, uzla so'raladi-yu, siz shu do'mda turasmi? Tez-tez shunaqa hunar ko'rsatib turadimi?" deb luqma tashladim. U xuddi ovozimni eshitmaganday eshik tepasidagi qavatsanar katakchalarga termulgancha turaverdi. (Nima balo, karpami? Yo rostanam "chala"lardanmikin?) Savolimga oynaga tirmashgan "nozanin" shosha-pisha: "Man turaman, man! Qoq o'rtasida! Lift o'lgurni o'rnatishganiga oy to'lgan yo'q, omale Xudoni bergan kuni ana shunaqa to'rmiz berib turadi.

Aksiga olib, bu ko'chma lahadni ichida telfonam ishlamaydi. Bitta-yarimtasitugma bosib, buzilganini bilib qolmasa, usta chaqirmasa, enangni ko'rding!" deb diydio qildi. Haytovur, bu nola naynovni tishiga botib, peshonasini Abrim Nataning garmoniday tirishtirdi-da, og'ir so'lish oldi. Keyin o'sha alpazda o'ziga gapirayotganday: "Tashqaridan ochsa bo'ladimi, ishqilib?" dedi sof o'zbek tilida va millatini oshkor ayladi. Uning so'rog'iga oynavand juvondan jo'yali javob keldi: "Nimani?!"

Meni qisqa metrajli qahqahamdan keyin shosha-pisha izoh bera boshladi: "Ha-a, liftnimi? Tashqaridan lom-pom tiqib, itarish kerak. Ochilib ketadi".

Naynovning ko'ngliga kamina ham unchalik o'tirishmay turganman chog'i bo'yinni burmay gap tashladi: "Og'aynichalish, nabodosiga, so'm-kayizdan lo'm-po'm chiqmaydimi?" Men ham uning so'rog'ini javobsiz qoldirdim. Bir-u bir. Mazza!

– Man o'zi ming marta aytganman qo'shnilariga "Liftni ichida lo'm tursin" deb. Qayog'da! Bahonalari lo'li! Iloyo ilovando, yoppasiga sanlaram qamalib, chillang shu yerda chiqsin!

Obbo, bu qachon to'k keladi-yu, qachon yorug'likka chiqamiz? Yaxshiyam, yakka tartibda qamalib qolmadim. Bo'lmasa, yuragim siqilib, o'lib-netib ketarimdim? Endi hangama qilib, vaqt o'ldirishdan boshqa ilojimiz yo'q. Nochor Naynovni gapga solishga majbur bo'ldim.

– Aka taqsir, ko'zimga juda issiq ko'rindingiz, qaysi oshyoni balanddan parvoz qildingiz? Kasbi koringiz ne? Futbolga qiziqasizmi-yo'qmi? Termamiz jahon chempioni bo'pketarmikin? Sizga Kapadze ma'qulmi yo Kannavaromi?

"Aka taqsir" savollar shodasini qilich tili bilan shartta uzdi: "Sovuq turqim ko'zingizga issiq ko'ringani bir mo'jizakim, kamina zo'r shoir bo'lishimga qaramasdan na TV, na FB, na boshqa OAVlarda ko'rinish beraman. Chunki ustozim Usta Gulmat Shoshiy rahmatli Tangri huzuriga chog'lanib, qo'tlig'iga lo'labolishni tortgancha qo'lidagi gulobmi-uzumobmi, ishqilib, ko'zni chirt yumib simirib, shokosani

dasturxonga dumalatib tashlarkan, vasiyat ohangida qat'iy tayinlagan: "Bo'tam, Sattor Surob, minba'd ommaga tanilay deb bevafo shuhrat tulporig'a igr'ib minmagaysiz, aslo o'zingizni arzon bozorg'a solmagaysiz, zinhor-bazinhor boyvachcha va kalonlar dilxushligi uchun qasidago'ylikni o'zingizga ravvo ko'rmagaysiz, ana shunda abadiyan o'lmagaysiz! O'shanchun...

Qo'limdan hunar-ustachilikning mavjud barcha turi keladi. Murdasho'ylikdan tortib, qassoblikkacha, duradgorlikdan kosiblikkacha, sarroflikdan chayqovchilikkacha, suvoqchilikdan bo'yovqchilik-kacha va hokazo...

Sport masalasida faqat chavgon bilan drayvga qiziqaman. Judayam! Chempionlik masalasiga kelsak, men alhamdulliloh, folbin emasman. Yana bir ustozim Ulug' Kaliy bunaqa noma'qulchilik bilan shug'illanma deb, o'z vaqtida to'xtatgan".

– Gulmatni eshitganman, o'qiganman ham, lekin Kaliy deganlari... Bu kimyoviy unsur emasmi, taqsir?

– Ha, buyam unsur atalib qamalib ketgan. Buyam o'ziga xos kimyogar edi. – Shoirman dedingizmi? Kitob-mitob chiqarganmilar?

– Bu yumushni kelajak avlodga qoldirganmiz. Zero, alar bizni tushungaylar va qadrimizga yetgaylar.

– Taxallusingiz g'alatiroqmasmi? Sattorligi mayli-yu, nega Surob?

– Asli padarimizning muborak ismlari Suhrob bo'lgan-u biz tavallud topib, guvohnoma zarurati tug'ilganda Natan Abziy degan kotib shunday xatolikka yo'l qo'yib, otamiz ismini va bizning nasabimizni g'alat bitgan ekan, skatina. Keyin rahmatli bobomizning dag'dag'asi va da'vosini qizil chervon bilan bostirib,

"Baribir qishloqdan nariga chiqmaydi, bitta harf hech nimani hal qilmaydi", deb taftbosti qilgan ekan.

(Aziz o'quvchim, suhbat davomida nomahram ayolning "Bitta qo'shnim yemagan qo'shiq yozardi, e onalarini emsin! Kaypda balkonga chiqib, rep aytardi, pivadan zaharlanib o'ldi, savil... Mana, manam bitta zo'r futbolisni taniyman, burchakdanam varataga tiqib qo'yadi... Man umuman dakmentsizman, lekin yigirma yildan beri och qolganim yo'q, uyimda klientlarim ochirit..." kabi joiz-nojoiz, chuchmal izohlari-yu luqmalarini matnga kiritmaslikka ijozat bergaysiz).

Suhbat qizib, texnik tutqunlig-u maishiy zulmat esdan chiqay deganda, baxtga qarshi "cho'lp" etib chiroq yondi-yu tik arava bir qalqib, tepaga ravona bo'ldi. Azza-bazza shoshib, shoir Sattor Surobni telefon raqamini olishga muvaffaq bo'ldim. Uzun gapning qisqasi, boshda ermak uchun ijod namunalari so'rab noma yo'llagan bo'lsam, javob olgach, biroz gangib qoldim. Telegramdan kelgan she'rlar men kutgandan behiroq, qamrovdor, hozirjavob va ta'sirchan edi. Bir so'z bilan aytganda, Chatjipiti zamoni gullaganda tabiiy tug'ma va tirik shoir topilganidan boshim ko'kka yetdi. Ey dedim ichimda, temir-tersak hamda sim o'rami hech qachon o'tashin qalb, o'jar ruhiyat-u inja tuyg'ularni yengolmaydi! Ana shunaqa!

O'sha turkumlardan bir juftini hamir uchidan patir tarzida aziz gazetxonlarga muharrir Madina Muattar orqali havola etarkanman, agar ma'qul tushsa, topiladi shoirimiz hayoti va ijodi haqida ham tahliliy maqola, esse va tadqiqotlarimizni e'lon qilib borurmiz, degan umiddaman.

Hurmat bilan kaminayi kamtarin
Mulla XUNOBINGIZ...

BOR

(Tutingan jiyanim Jabbor so'takka jahli aralash pand berganim)

Tasmatak sochin o'rib, aylamish dildor dor,
Bir ko'zi mushtoq sanga, paysallama, Jabbor, bor!

Har zamonning Majnun ila o'z Laylisi bo'lgay bino,
Baxtingga Karbalo ermas, muntazir gulzor zor.

Fol ochib, taxmin surib, qashlab bo'yin, lallayma ko'p,
Bul xiyobon rastasinda mo'l emas tayyor yor.

Feyisbukda dong'i chiqqan bo'lsa, bil, u fotoshop,
Asal borki, pashsha g'ujg'on. Qilmag'il zinhor or.

Er kishi shunqor bo'lib tashlanmasinmu o'ljaga?
Qoldirub ishni keyinga, yog'durmag'ay shunqor qor.

Gijbadang to'yolar qiloli, Xatcha danapni o'ynatub,
"O'laman, Sattor" debon sayratub Sattor tor.

Quyqa qishlog'ida XXI asrning 21-yillari
atrofida bitildi.

TAVBA

(Rasman uchinchi yo to'rtinchi xotinga nikoh o'qitgali
otlangan Miltiqboy jo'ramni insofaga chaqirganim)

Xotin ko'paytirganlar bari
Oldin qo'ppayadi, keyin so'ppayadi.
Chunki xotin ko'paygan sari
Qaynona ham o'z-o'zidan ko'payadi.

XXI asrning 1-choragida peshindan
keyin bitilgan.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

TAYYORLANISHI YENGIL, ASORATI OG'IR



Hatto suv ham me'yoridan ortiq ichilsa buyrak, yurak va o'pkaga zarar keltiradi. Endi boshqa barcha yegulik va ichimliklarning o'lchovini unutish nimalarga olib kelishini tasavvur qiling.

Bugun odamlar yurib emas, "uchib" yuribdi, ayniqsa, yoshlar. Shunday sharoitda tez tayyor bo'ladigan ovqat – "fast food" (fastfud) ko'pchilikning doimiy tanloviga aylandi. XX asr boshida amerikalik ishchilar va talabalar mehrini qozongan fastfudlar bugun milliardlab xo'randaga ega. So'nggi yillarda yurtimizda ham bu tarmoq keng rivojlandi. Avvallari poytaxt va yirik shaharlardagina fastfud shoxobchalariga ko'zimiz tushardi. Endi chekka qishloqlarda

ham ularni bemalol topishingiz mumkin. Talab va taklif ham shunga yarasha.

An'anaviy o'zbek oshxonasidan butkul farq qiladigan mahsulotlar – hamburger, sendvich, xot-dog, pitsa, shaurma va boshqalardan bahramand bo'lish yaxshi, albatta. Yangi ta'mni sinab ko'rish ham odamga o'zga-chaykiyat bag'ishlaydi. Lekin me'yorni unutib qo'ysak, tez tayyor bo'ladigan taomlar uzoq vaqt davom etadigan kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqotlarda fastfud tarkibidagi yog', tuz va shakar vaqt o'tib, ortiqcha vazn, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet chaqiradi.

Bizni ko'pincha ularning reklamasi o'ziga jalb qiladi. Yorqin

bannerlar, qulay qadoq, tezkor yetkazib berish, shuningdek, kafelarning noodatiy arxitekturasini va dizayni odamlarni beixtiyor o'ziga jalb etadi. Ayniqsa, bolalar bunday reklamaniing asosiy ishtiyoqmandi hisoblanadi. Afsuski, fastfudlar o'sayotgan yosh organizm talab qiladigan quvvatni bera olmaydi.

"Fastfuddan voz kechish kerakmi?!" Yo'q, albatta. Masalani bunday uzil-kesil qo'yish kerak emas. Tezpishar taomlarni kunlik emas, haftalik menyuga kiritish tavsiya qilinadi.

Ayol sifatida bir masalani eslab o'tmoqchiman. Oilani bir-lashtiradigan, bir-biriga mehr-muhabbatni ziyoda qiladigan omil – kechki ovqat dasturxon. Bu dasturxon faqat buyurtma fastfudlar, yarim tayyor mahsulotlar bilan to'ldirilmay, onalik mehri, yor sevgisi, jigarlik g'amxo'rliqi qo'shilgan ovqatlar bilan bezatilsa, nur ustiga nur bo'ladi. Odam jismi yegan taomlari hisobidan o'sib, rivojlanadi. Begona qo'llar tayyorlagan taomlarning doimiy iste'moli yaqinlaringizni ham begonalashtirib qo'yadi.

Bu masalaga har bir ota-ona mas'ul!

Feruza RAHMATOVA
Facebook

TILBILIM



KO'PIK USTIDAGI KO'PRIK

Bu ikki so'zning ma'nosi haqida uzundan uzoq izoh berib o'tirishning hojati yo'q. Hamma taniydigan, hamma ishlatadigan so'zlar. Xo'sh, ularning bir-biriga qarindoshligi bormi? Yo aka-ukaday uyqash bu so'zlar shunchaki shakldoshmi? Ayniqsa, "ko'pik hosil qilish" ma'nosidagi ko'pir fe'li ko'prik so'ziga yanada uyg'un keladi.

Avvalo, bu ikki so'z ildizidagi ko'p so'ziga to'xtalaylik. Turkiy tillar etimologik lug'atida ko'p so'zi "pufflash", "shish", "ko'taril" ma'nolarini anglatadi, deb izohlangan. Ko'prik, ko'pik, ko'pir, ko'pchimoq so'zlari ning o'zagida shu ko'p so'zi yotadi. Yana bir gap, o'tmishda shishirilgan meshlar va sanochlarni bir-biriga bog'lab daryoga ko'prik qilib o'tish hollari bo'lgan.

Yana bir jihatga e'tibor qilish kerak. "At-tuhfa lug'ati"da idishdagi sut

qaymog'i ko'pik deb atalgani haqida yozilgan. E'tibor qilsangiz, qaymoq ham suyuq sutning yuzasida bo'ladi. Ko'pik ham faqat suv ustida bo'ladi. Ko'prik ham shunday.

Ko'p so'zi tuvaliklar tilida "ko'pirish", "pol qoplamasi", qalmoqlar tilida "egar yostig'i" ma'nosini anglatadi. Mahmud Koshg'ariya egar ustiga kiygiziladigan yopinchiq "kõpchuk" so'zida ifodalangan.

Negadir "Alisher Navoiy asarlari tili lug'ati"ning ikki nashrida ham qadimiy ko'pik so'zini uchratmadim. Ko'prik so'zi bor:

"Ul dedikim, jamoatiki, daryodin ko'pruk bila nori yuzga o'tubturlar, chun ko'pruk birdur". ("Tarixi muluki ajam")

Ba'zi olimlar ko'prik so'zining paydo bo'lishini mo'g'ulcha ko'prik ma'nosidagi kõgerge so'ziga taqaydilar.

Eshqobil SHUKUR

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 760

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 122

Lotin yozuvida – 11 638

Media kuzatuvchilar – 75 682

Buyurtma: G – 1040.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz